

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI O'ZBEK FILOLOGIYASI
YO'NALISHI**

401-GURUHI TALABASI

MASHARIPOVA FAZILATNING

**“Odil Yoqubovning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni va adib
asarlarini umumta'lim maktablarida o'rgatish usullari”
*mavzusidagi***

BITIRUV

malakaviy ishi

Ta'lim yo'nalishi:

**o'zbek filologiyasi bakalavr
darajasini olish uchun**

**Ilmiy rahbar:
Taqrizchi:**

**f.f.n. Pirnazarova M.M.
Yaxshimurotova F.**

**Bitiruv malakaviy ishi o'zbek adabiyoti kafedrasining 2013 yil aprel majlisida
muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.**

Kafedra mudiri:

f.f.n. Sariev S.M.

URGANCH-2013

REJA:

Kirish

I Bob. Odil Yoqubovning yangi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni

1.1.Odil Yoqubov zamonaviy o‘zbek nasrining yirik namoyandasi.

1.2.Adibning dramaturgiya sohasiga qo‘shgan hissasi.

1.3.Odil Yoqubov ijodida tarixiy mavzu.

II Bob. Adib ijodiga mansub asarlarni umumta’lim maktablarda o‘rgatish usullari

2.1. Umumta’lim maktablarining 6-sinflarida “Muzqaymoq” hikoyasini o‘rganish.

2.2. “Ulug‘bek xazinasini” romanini o‘rgatishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotimizda ulkan o'zgarishlar, tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda har bir shaxs buyuk o'tmishimizni yaxshi bilgan holda kelajagimiz ravnaqi uchun eltadigan eng oqilona yo'llardan borish talab qilinadi. Bunday oqilona yo'lda Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganidek, "Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi"¹.

O'zbekiston mustaqilligi o'zbek adiblari oldiga yangidan–yangi vazifalar qo'ydi. Badiiy ijodda qalam tebratayotgan ijodkorlarning so'zi millatning ijtimoiy – siyosiy ongini, ma'naviy, ahloqiy dunyoqarashini shakllantirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Biz atoqli adib Odil Yoqubov ijodining o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini tadqiq qilishga qo'l urar ekanmiz, adib ijodiga mansub asarlarning o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasini ko'rsatish, bundan tashqari ulkan ajdodlarimiz hayoti va faoliyati, ularning ruhiyatida kechgan muqaddas tuyg'ularning yozuvchi asarlarida qay darajada aks ettirilganligini ochib berish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilishi. Odil Yoqubov ijodi turli aspektlarda ancha jiddiy tadqiq etilgan². Ayniqsa, adibning portret yaratish, rivoyatlardan foydalanish mahorati, romanlardagi psixologizmlar masalalari alohida–alohida o'rganilgan. Jumladan, A.Xolmurodovning "O.Yoqubov romanlarida psixologizm" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasida uchta masala–ijtimoiy hayot va tarixiy taraqqiyot o'rtasidagi ziddiyatlarning psixologik tahlili, inson va jamiyat munosabatlarining

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. –T. Ma'naviyat, 2008. –B.29.

² Qo'shjanov M. Qalb pokligi. Saylanma 1 jild. T.: 1982. Xudayberganov N.Parvoz davom etadi. -T.: 1980. Sharafiddinov O.Ijodni anglash baxti. –T.: 2004. Normatov U.Yangi o'zbek adabiyoti. –T.: 2007 va boshqalar. G'afurov Y.Mangu latofat. –T.: 2009. Ergashev A.S. Rivoyat va uning badiiy asar syujet –kompozitsion tuzilishidagi o'rni. Filologiya fanlari nomzodi. Diss. Avtoref. –T.: 1993. Qurbanov T.J. O.Yoqubovning partret yaratish mahorati: Filol. Fanlari nomzodi diss. avtoref. –T.: 1997. Rahimov Z.A. O.Yoqubovning "Ko'hna dunyo" romani poetikasi. Isayeva Sh. O'zbek tarixiy romanlarida xarakter ruhiyatini tasviriy usullari. Filol. Fanlari nomzodi diss. avtoref. –T.: 2003.

psixologik tahlili, zamon psixologiyasi va uning badiiy haqiqatga aylanishi muammolari adib romanlari misolida tadqiq etilgan³.

Bulardan tashqari A.S.Ergashev T.J.Qurbanov, Z.Rahimov, Sh.Isayevalarning tadqiqotlarida adib ijodiga oid muammolar tadqiq qilingan.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda adib ijodining o'ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizda adabiyotshunos olimlarning O.Yoqubov ijodiga bag'ishlangan ilmiy ishlariga tayangan holda o'z fikr mulohazalarimizni ilgari surgandik.

Tadqiqotning maqsadi. Bitiruv malakaviy ishimizdan maqsad O.Yoqubovning atoqli adib sifatida o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasini aniqlash, adibning tarixiy mavzuda yozgan asarlarini tahlil qilish orqali yozuvchining tarix haqiqatini jonli, haqqoniy tasvirlash mahoratini ochib berishdir. Bundan tashqari o'rta umumta'lim maktablarining 6-sinflarida O.Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasi va 9-sinflarda "Ulug'bek xazinasini" romanlarini o'rganish dasturga kiritilgan bo'lib, o'sha asarlarni o'quvchilarga o'rgatishda foydalanish mumkin bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni ilgari surish tadqiqot maqsadiga kiradi.

Tadqiqot vazifalari yuqorida keltirilgan maqsaddan kelib chiqib, ishda quyidagilar asosiy vazifa qilib belgilandi:

- Odil Yoqubovni atoqli o'zbek adibi sifatida yangi o'zbek adabiyotining rivojlanishiga qo'shgan hissasini ko'rsatib berish;
- Adibning dramaturgiya sohasiga qo'shgan hissasini dramatik asarlari misolida kuzatish.
- Yozuvchi ijodida tarixiy mavzuning o'rni, tarix haqiqatining jonli, haqqoniy gavdalantirilganligi orqali o'tmish saboqlarini yodga tushirganligini ko'rsatish.

³ Холмуродов А. Психологизм в романах Адыла Якубова. АКД.-Т.: 1991.

- O'rta umumta'lim maktablarining adabiyot fani dasturiga kiritilgan adib hikoyasi va romanlarini o'rganishda foydalaniladigan interfaol metodlarni ilgari surish:

Tadqiqot obyekti. Bitiruv malakaviy ishimizning manbai sifatida O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunyo", "Diyonat" romanlari, "Qaydasan, Mariko" kitobiga kiritilgan turli janrdagi asarlarini oldik. Tadqiqotning obyekti bo'lgan zabardast adib Odil Yoqubov asarlari adabiy hayotimizdagi an'analarni o'ziga xos badiiy tajribalar bilan boyitdi, bundan tashqari yozuvchi ijodiga mansub bo'lgan dramatik asarlar o'zbek dramaturgiyasi janr rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Ishda adibning tarixiy romonlarida tarix haqiqatining jonli, haqqoniy gavdalantirish orqali o'tmish saboqlarini yodga tushirganligi ochib berildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasi, "Ta'lim to'g'risidagi Qonun"i, "Kadrlar tayyorlash milliy dastur"i, Umumiy o'rta ta'limning "Adabiyot o'quv dasturi", Prezidentimiz I.A.Karimovning ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim-tarbiya, milliy va umumbashariy qadriyatlar to'g'risidagi fikr-mulohazalari, o'zbek adabiyotshunos olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari va qarashlari bitiruv malakaviy ishimizda tayanilgan metodologik asos bo'ldi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishidagi ilmiy xulosalardan umumta'lim maktabi adabiyot darslari, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarni uyushtirishda, shuningdek, akademik litseylarda fakultativ mashg'ulotlarni olib borishda foydalanish mumkin.

Ishning hajmi Bitiruv malakaviy ish kirish, har qaysi ikkita fasldan iborat ikki mustaqil bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi _____ so'zdan tashkil topgan.

I BOB. ODIL YOQUBOVNING YANGI O‘ZBEK ADABIYOTI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI.

1.1.Odil Yoqubov zamonaviy o‘zbek nasrining yirik namoyandasi

Odil Yoqubov o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining XX asrning 50 yillari o‘rtalaridan boshlangan yangi bosqichda yetishgan avlodning karvonboshlaridan edi. U o‘z ijodiy faoliyati, faol ijtimoiy ishlari va jurnalistika sohasida olib borgan izlanishlari bilan zamonaviy adabiy-badiiy tafakkur rivojida samarali ta’sir ko‘rsatdi. Uning “Muqaddas”, “Bir fel’eton qissasi”, “Qanot juft bo‘ladi”, “Matluba” qissalari, “Bir koshona sirlari” dramasi, “Namangan tomonlari”, “Qishloqdagi fojea” singari publisistik maqolalari, ulkan anjumanlardagi chiqishlari, “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo”, “Diyonat”, “Oqqushlar, oppoq qushlar”, “Adolat manzili” romanlari keng jamoatchilik e’tiborini o‘ziga tortdi, qizg‘in bahs-munozaralar markazida turdi: xususan adibning “Ulug‘bek xazinasi” va “Diyonat” romanlari jahon xalqlarining ko‘pgina tillariga tarjima etilib, o‘zbek adabiyotining kamolotini ko‘rsatuvchi asarlariga aylandi.

U avval bolalar uchun kichik qissalar yozib yurdi. Shundan keyin uning «Ikki muhabbat» hikoyasi chiqdi. Bu hikoyaning ichida erkin parvozga xohish bor edi. Shu samimiy xohish odamlarga yoqdi. “Ikki muhabbat” Odil Yoqubov boshdan kechirayotgan izlanish jarayonlarini ham ma’lum darajada aks ettirdi va bir muayyan nuqtaga yetkazdi. Menga Odil Yoqubovni yozuvchi darajasiga ko‘targan “Muqaddas”da ham, undan keyin yaratilgan “Larza”, “Tilla uzuk”, “Bir fel’eton qissasi” kabi asarlarda ham shu “Ikki muhabbat”dan ergashib kelayotgan bir o‘zak narsa borgan o‘xshaydi. Buni insonning o‘z-o‘zini ochishga, o‘z maylini namoyish qilish, irodasini ko‘rsatish va tasdiqlashga bo‘lgan intilish deb atash mumkin. “Larza”da rais Mutalning, “Bir fel’eton qissasi”da Saltanatning, “Tilla uzuk”da Roziyaning, «Er boshiga ish tushsa»da Barnoning boshiga og‘ir tuhmatlar tushadi. Bular bo‘htonlarga qarshi kurashda chiniqib pishadilar, suvning shamol tekkan joyi qanchalar zilol va toza bo‘lib ko‘rinsa, bular ham bo‘hton qarshisida shunchalar tiniq va to‘lqinli bo‘lib ko‘rinadilar.

Yana shu o'rinda Odil Yoqubovning keyingi paytlarda yaratgan "Matluba", "Qanot juft bo'ladi", "Izlayman" qissalarida qahramonlarini ko'proq ichki urinishlarda, ichki izlanishlarda ko'rsatish yo'lidan borayotganligini, qahramonlar tabiatidagi dramatik tanglikni avvalgi asarlarida bo'lgani kabi ko'proq tashqi ta'sirlardan emas, ularni o'z ichki dunyosi tug'yonlaridan keltirib chiqarishga urinayotganligini ta'kidlash lozim. "Izlayman" qissasida aqlni shoshiradigan favqulodda syujet harakatlari yo'q. Unda o'tgan urushda yangragan so'nggi to'p sadolari, so'nggi mashaqqatli yo'llar. Bu yo'llarda ulg'aygan, matonat orttirgan kishilar haqida hikoya qilinadi.

Bunda yo'q yerdan to'qib chiqarilgan qahramonliklar, yurakni uvishtiradigan, dilni o'ynatadigan, qattol qalampirday badanni juvillatadigan qiyinchiliklar, izti-roblar, o'rtanib-kuyishlar uchramaydi. Yozuvchi o'zining hayotda ko'rganlaridan bir shingilini do'stlariga suhbat o'rtasida so'ylab berayotganday bo'lib tuyuladi. U davraga baland hashamatli, atrof-tumonotga yetgulik gulxan yoqmoqchi emas. Bu yo'lda borayotgan odamning kamtargina gulxani. Lekin u yo'lovchilarga uzoqdan ham, yaqindan ham baralla ko'rinib, o'z davrasiga tortib turadi. Kitobxonda bu gulxanning haroratiga sherik bo'lish ishtiyoq uyg'otadi.

Avvalo, qissa yozuvchining o'z boshidan kechirgan, ko'z o'ngida sodir bo'lgan voqealar asosida yozilgan. Ikkinchi jahon urushining so'ngida sovet qo'shinlari Gobi sahrosi, Xingan tog'laridan o'tib, yapon qo'shinlarining orqa tomonidan chiqqan va ularga qaqshatqich zarba bergan edi, O'n sakkiz yashar ko'ngilli soldat Odil Yoqubov bir qancha o'zbek yigitlari qatori mana shu tarixiy operatsiyada ishtirok etgach, og'ir safar mashaqqatlarini tortib, qisqa, lekin shiddatli janglarda qatnashgan edi. U urush tugagach ham xiyla vaqt Uzoq Sharqda qo'shinlar saflarida xizmat qildi.

Urush haqida ko'ngilda uzoq tugib yurilgan asarning g'oyasi, shakli yetilib pishdi. Yozuvchi qissa voqeliklarining ko'pida o'zi ozmi-ko'pmi ishtirok etganidanmi, asarda odamni ishontirmaydigan gaplar deyarli uchramaydi. Kitobxon qissa voqealarining hayotiyligi, chinligiga sira ham shubha qilmaydi. Qaysi bir o'rinlarda o'n sakkiz yashar shoirtabiat yigit nomidan hikoya qilib berarkan, u

yozuvchi bilan bir shaxsday anglanadi. Lekin bu shunday ham, shunday emas ham. Chunki soldat Mansur Murodov hali shoir yoki yozuvchi bo'lib ulgurmagan, samimiy bir yigitcha obrazidir. U juda ko'p paytlarda o'zini panaga olib, ko'proq kapitan Davron va uning do'stlari taqdirini hikoya qilishga, kitobxon ko'ziga ko'proq shularning hayotini ko'rsatishga intiladi.

Qissada Odil Yoqubov qator yosh soldatlar obrazlarini chizdi. Bular Volgadan Berlingacha urush yo'llarini bosib o'tib, mana endi yapon jangchilariga qarshi jangga otlangan keksa soldatlar urush veteranlariga havas ko'zi bilan boqadilar. Ulardan o'rganishga, ular oldida past ketmaslikka qattiq tirishadilar. Ular, ayniqsa, batalon komandiri kapitan Davron G'ozievga qattiq mehr qo'yadilar. Bu tuyg'u Mansurda hammadan ham kuchliroq namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham, uning og'zidan Davron G'oziev tushmaydi, ko'zi esa, qayerda bo'lmasin Davron G'ozievni izlab topadi.

Odil Yoqubov yosh soldatlarning veteranlarga bo'lgan muhabbatini tasvirlar ekan, ularni chinakam muhabbatga sazovor kishilar sifatida jonli talqin eta olgan. Yozuvchi kapitan Davron G'oziev, kichik leytenant Olya Kupriyanova, katta leytenant Xaritonov singari soldatlar o'rtasidagi soldatcha metin do'stlikni, sadoqatni, muhabbatni hayotiy, ishonarli qilib tasvirlay olgan.

Asarda jarayonlar uzluksiz tugunlar va ularni yechish orqali kechadi. Birinchi tugun kapitan Davronning "qorasuvlik" yigitlar Mansur, Arslon, Mirhaydarlar bilan uchrashuvida, ularning bundan o'zaro mamnun bo'lganliklarida ko'rinadi. Kapitashshig "Qorasuv" degan qishloqni, shu qishloqlik tegirmonchining qizi Salomatxonni bilishligi Mansurni ko'nglida tugun paydo qiladi. Qissaning qator voqealari shu tu-gun orqali rivojlanadi.

Mansur o'sha shaharga o'qishga ketgan go'zal Salomatxonni "yo'ldan urib" qishloq yigitlarini dog'da qoldirgan, shov-shuvlarga sabab bo'lgan farg'onalik yigitning o'zi shu kapitan Davron emasmikin, degan xayolga boradi. Bu chindan ham, Salomatxonni olib qochib ketayotgan yigitlar qo'lidan qutqargan, uni deb xiyla aziyatlar tortgan chapdast farg'onalik yigit bo'lib chiqadi. Mansur bilan tanishgan

chog'larida esa u qishloqdan, Salomatxondan xat ololmay, u haqda tuhmat gaplar eshitib, o'rtanib yurgan paytlari bo'ladi.

Ikkinchi tugun batalon feldsheri ajoyib rus qizi Olya Kupriyanova taqdiri bilan bog'liq. Olya bilan kapitan Davron o'rtasida allaqanday juda yaqin munosa-batlar, do'stona sirdoshlik bor. Mansur bu munosabatlarning tugal ma'nosini anglab yetolmaydi. Kapitan Olyani sevadi deb aytay desa, bu yoqda Salomatxon bor. Sevmaydi deyishlik uchun esa, ular bir-birlariga nihoyatda yaqin, g'amxo'r, mehribon bo'lib ko'rinadilar. Shuning uchun Mansur yoshligiga borib, dam Salomatxonni Davrondan, dam Davronni Olya Kupriyanovadan, Olyani esa kapitan Nagayevdan qizg'anib yuradi. Mansur uchun noaniq holat bu ham bir tugun shu tariqa ikkitaga yetadi. O'quvchi ham bu voqealarga Mansurning ko'zi bilan qaray boshlaydi. Tugunlarni tezroq yechgisi, sirli munosabatlarning tagiga yetgisi keladi.

Lekin asarning boshqa bir katta tuguni ham bor. Hali qiyin-qistov ko'rmay qirovi to'kilmagan yosh soldatlar yapon bosqinchilariga zarba berish uchun kimsasiz, suvsiz Gobi sahrosini, mushkul Xingan tog'larini bosib o'tishlari kerak. Bu mashaqqatli safarda Mansur, Arslon, Shoyusuf, Mirhaydar kabi urush neligini bilmagan soldatlarning boshidan nimalar kechishi mumkin-ligi, ularning bu sinovga qanday bardosh berishlari ma'lum emas. Bu — safar va sinov tuguni. Yoshlar bu safardan toblanib, chinakam yigit bo'lib chiqadilar.

Bu tugunlarga kapitan Nagayev muammosi ulanadi. Bu odam juda po'rim, olifta, ayollarga muomalada chapdast va "olg'ir" kishilardan. U Olyaga "ilakishadi", qizning ko'nglini turli yo'llar bilan ovlay boshlaydi. Olyaning esa unga qanday munosabatda bo'lishi, bunga kapitan Davronning nima deb qarashi qiziqarli mavzulardan biriga aylanadi.

Tugunlarning yechimi jarayonida ahloqiy-etik yo'nalishdagi boshqa bir muammolar kelib chiqadi va povestning asosiy oqimini to'ldirib, uni yaxshi ma'noda serbahra qilib boradi.

Odil Yoqubov kitobxonning diqqatini mana shunday vositalar bilan o'ziga jalb qilib, uning e'tibor va muhokamasiga tobora qiziqroq, ma'niliroq hayot qatlamlarini havola qilishga kirishadi.

Aks ettirilayotgan qatlamlarning chuqurligi unda harakat qilayotgan odamlarning jonliligi, xarakter tabiati va shaxsiy miqyoslariga bog‘liq bo‘ladi. Yozuvchi voqealarning harakatchanligiga qancha ko‘p e‘tibor bersa, qahramonlarining jonli va hayotiy chiqishi uchun shuncha ko‘p jon kuydiradi. U har bir qahramonni, hatto eng kichik personajgacha ishonarli gavdalantirishga jiddiy e‘tibor beradi.

Odil Yoqubov jang chog‘lari ham ularni ko‘proq o‘lim emas, muhabbat va hijron qiynaganligini, nohaqlik o‘rtaganligini, bu oddiy insoniy tuyg‘ular kishini hech qachon, hech qanday sharoitda tark etmasligini yaxshi ifoda qilib berolgan.

Qissada yozuvchi erishgan jiddiy yutuqlardan yana biri deb, unda obrazlari tasvirlangan Olya, Xaritonov, starshina Salo, Vasya Kolbaskinni ta’kidlamoq o‘rinlidir. Odil Yoqubov bu obrazlarning har birini o‘ziga xos jonli belgilari, xarakter xususiyatlari bilan gavdalantiradi.

Urush ayriliqlarsiz bo‘lmaydi. Kapitan Davronga bo‘lgan benixoya pokiza muhabbati javobsiz qolgan ajoyib rus qizi Olya Kupriyanova fojiona halok bo‘ladi. Kombat Davron G‘oziev jangda og‘ir yaralanib o‘ladi. Yo‘qotishlarning miqyosini, oilalarning musibatini povestning so‘ng boblari yanada yorqinroq, yanada shoironaroq qilib chizdi.

Musibatda yolg‘iz muhabbatning qudratiga suyangan Salomatxonning pokiza qalbi, zo‘r sadoqati, ibratining kuchi bilan qattiq hayajonga soladi.

U voqelikni bejab-bezantirmay, uning o‘zini maroqli qilib hikoya qilish uslubini yoqtiradi. Lekin, bu uslub, Pushkin, Chexov, Tolstoy, o‘zbek adabiyotida esa G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor va ular bilan izma-iz kelayotgan Shuhrat, Pirimqul Qodirov, Said Ahmad, O‘lmas Umarbekov, Uchqun Nazarov, O‘tkir Hoshimov uslubi—yozuvchidan ulkan tajriba va mahorat talab qiladi. Bu uslubga amal qiluvchi uchun bir povestni yaratishga olti oy emas, olti yil ham kamdir. Odil Yoqubov esa shu talabni yaxshi his qiladigan yozuvchi.

“Sharq” nashriyoti tomonidan 2002 yilda chop etilgan “Qaydasan, Mariko?” kitobi o‘tgan yillardagi adabiy hayotimizda sezilarli voqea bo‘ldi. Kitob “qissalar”, “pyesalar”, “hikoyalar”, “etyudlar”, va “maqolalar” degan bo‘limlardan iborat bo‘lib,

bir jihatdan tanlangan asarlarga o'xshab ketadi. Lekin u tanlangan asarlar emas, kitobga muallifning mustaqillik yillarida yozilgan bir qator asarlari bilan bir qatorda, ijodining ilk bosqichlarida yaratilgan, ehtimol, adib uchun eng ardoqli bo'lgan ayrim asarlar ham kiritilgan. Adibning oldingi yillarda yaratilgan asarlari yangilari bilan birlashib, yozuvchining yarim asrdan beri adabiyot sohasida samarali mehnat qilib kelayotganidan, adabiyotimiz xazinasini baquvvat va yorqin asarlar bilan boyitib, o'zbek nasrining rivojiga yo'nalish berib kelganidan dalolat beradi.

Odil Yoqubov o'z ijodi davomida bir qancha eskirmaydigan, vaqt-soat o'tganday ko'rinsa-da, kitobxonning koriga yaray biladigan asarlar yaratish baxtiga muyassar bo'lgan adibdir. Shunday asarlardan biri "Muqaddas"¹ qissasidir. Bu qissa yozilganiga yarim asr bo'lgan. Asar to'g'risida yozilgan maqola va tahlillarning guvohlik berishicha, qissa bosilib chiqishi bilan qo'lma-qo'l bo'lib ketgan. Ushbu asarni yozganda adib endigina o'ttiz yoshga kirgan ekan. Lekin shunga qaramay u chuqur insoniy mazmun va joziba bilan sug'orilgan ajoyib asarini yaratgan.

Odil Yoqubov keyin ham samarali ijod qilishda davom etdi. Uning "Ulug'bek xazinasini" va "Diyonat" kabi romanlari o'zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. Adibning ba'zi bir kichik asarlari ham adabiyotimiz xazinasidan mustahkam o'rin olgan. Fikrimiz dalili uchun "Muzqaymoq" hikoyasini keltirishimiz mumkin. Yarim xotira, yarim hikoya tarzida yozilgan bu asarda butun umri davomida sho'roga halol xizmat qilgan va buning evaziga "xalq dushmani" degan unvonni olgan otaning unutilmas siymosi chizilgan. Bu odam o'z ishiga shunday fidoiylik bilan berilganki, hatto necha martalab sevimli farzandiga muzqaymoq olib berishga ham fursat topa olmagan.

Bir insonning bunday alamli taqdiri haqidagi sahifalarni o'qiganda qalbimiz titrab ketadi. Ushbu kitobga kiritilgan Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar"i haqidagi esse ham shunday baland ruh bilan sug'orilgan. Adibning bular va bularga o'xshagan yana bir qancha asarlari bizga bir muhim saboq beradi. Ushbu kitobga kiritilgan yangi asarlar faqat xronologik jihatdangina istiqlol adabiyotiga kiradigan asarlar

¹ Odil Yoqubov. Qaydasan, Moriko. –T.: Sharq, 2004.

emas, ular birinchi navbatda fikrlarining teranligi va erkinligi bilan, hayotga yondashishining yangiligi bilan ajralib turadi.

Odil Yoqubovning mazkur kitobidagi yangi asarlar, jumladan, “Qaydasan Mariko”¹ qissasi o‘zbek adabiyoti uchun mavzu jihatidan yangi asardir. Chunki, sho‘ro zamonida ayrim hollarda odamlarni qiynab qo‘yadigan qonunlar, qoidalar, tartiblar ko‘p bo‘lardi. Shulardan biri sovet kishisi bilan xorijiy odamlar o‘rtasida har xil ishqiy munosabatlarga mutlaqo yo‘l qo‘yilmas va ularning qonuniy nikohdan o‘tishlariga ijozat berilmasdi. Lekin inson yuragi qonun-qoidalarini tan olmaydi, ba‘zan, tuyg‘ular qonunlar bilan to‘qnashgan joylarda turli-tuman insoniy dramalar va hatto fojealar vujudga kelardi. Odil Yoqubovning “Qaydasan Mariko” asarida shunga yaqin voqea hikoya qilinadi. Unda olovli muhabbat, bu muhabbatning go‘zal va haroratli tasviri o‘zbek va yapon xalqlari o‘rtasidagi mehr muhabbat timsolidek gavdalanadi. Undagi nurli tuyg‘ular navqiron qalblarda endigina barg yoza boshlagan. Bu munosabatlarni adib g‘oyatda ustalik bilan tasvirlaydi, biron o‘rinda bachkanalikka berilmaydi. Natijada, armiyada xizmat qilayotgan yosh o‘zbek yigiti ham, yapon qizi ham g‘oyatda pokiza, g‘oyatda olijanob odamlar sifatida ko‘rinadi va kitobxon ularni sevadi. Asarda dunyodagi odamlar diniy e‘tiqodi-yu milliy mansubligidan qat’iy nazar, juda ko‘p mushtarak tomonlarga ega ekani, rasmiy qoliplar esa ko‘pincha ularning insoniy mohiyatlarining ro‘yi-rost namoyon bo‘lishiga xalaqit berishi haqidagi g‘oya olg‘a surilgan. Insoniy tuyg‘ular tasviridagi tiniqlik, me‘yorga qat’iy amal qilish bu asarga o‘zgacha latofat bag‘ishlagan. Kitobning so‘nggi qismiga publisistik maqolalar kiritilgan. Odil Yoqubov ijodini kuzatadigan bo‘lsak, publisistika hamisha badiiy asarlar bilan yonma-yon kelgan. U sho‘ro zamonida ham xalq dardiga yo‘g‘rilgan, juda jiddiy muammolarni ko‘tarib chiqardi. Bularning ba‘zi birlari nihoyatda qaynoq ehtiros bilan yozilgan bo‘lib, o‘zbek publisistikasining klassik namunalariga aylanib qolgan. Odil Yoqubovning “Diyonat” romani orqali kuchli tuyg‘ular, ehtirosli fikrlar, o‘tkir g‘oyalar shiddati bilan mavjlanib, qalblardagi shiddatni avj oldiradi, o‘zi ham voqealari ham qahramonlari ham tabiiy shiddat ruhiga yo‘g‘rilgan. Ayniqsa “Diyonat”da tinimsiz

¹ Odil Yoqubov. Qaydasan Moriko, -T.: Sharq 2004.

izlanish-intilishlar, kurashlar bilan nafas olayotgan zamondoshlarimizni uchratamiz, ularning quvonchlari, g'am-alamlari, zafarlari-yu, muvaffaqiyatsizliklariga sherik bo'lamiz.

Xususan, Otaqo'zi bilan Normurod Shomurodov olishuvi, to'qnashuvi butun vujudimizni qamrab oladi. Axir, har ikkalasida burgut qudrati-yu, burgut shijoati jo'sh urib turadi-ku! Har ikkalasi ham hayot yuksakliklarini ko'zlab, fikrlar, g'oyalar, tuyg'ularning cheksiz-chegarasiz zalvorli ufqlarida parvoz etadi. Ko'pgina yetuk romanlarda asar g'oyasini chuqur yoritish uchun talab qilingan barcha voqealar, fikrlar, tuyg'ular, tafsilotlar bir nuqtaga yig'ib beriladi. Otaqo'zi obrazi "Diyonat" uchun mana shu "nuqta" vazifasini o'taydi. Otaqo'zi ko'proq karikatura tarzida bitilgan o'shanday obrazlardan farqli o'laroq, avvalo hayot odami sifatidagi murakkabligi, kuchli va ojiz tomonlari bilan berilgan. Uni biz har jihatdan 70-yillarning tipik xodimi deya olamiz. Unda fikr, manfaat doirasi xiyla keng. Unda ishchanlik bilan barobar savod, bilim, did va madaniyat ham yetarli darajada, u har qanday rahbar xodim, olim bilan ham har xil mavzuda bemalol baxslashga oladi. Boshida u xiyla dilkash, hissiyotga boy, tanti odam sifatida ko'rinadi. Ammo bora-bora turg'unlik muxitida o'jar, mag'rur, o'zbilarmon, shavqatsiz, toshbag'ir kimsaga aylanadi.

Yozuvchi inqirozga yuz tutgan Otaqo'zi bilan barobar nihoyatda pok va halol inson Normurod domla dramasini ham mahorat bilan ochadi. Bu odam uzoq va shonli hayot yo'lini bosib o'tgan. Biroq taqdir uni siylamagan, boshiga ko'p kulfatlar tushgan. U bor kuch-quvvatini, umrini fan, adolat, el-yurt ishiga fido qilib, evaziga el-yurtdan, hech narsa talab va ta'ma etmaydi. U asar asosida yotgan yetakchi g'oya-adolat, diyonat, e'tiqodning o'ziga xos timsoli, ayni paytda kurashlarda toblangan, adolat, insof, diyonat tuyg'usi qon-qoniga singib ketgan oddiy, tanish bir inson. Domlada adolat, diyonat, o'ta talabchanlik, chuqur gumanistik ruh, odamlarga mehmuruvvat tuyg'usi bilan yo'g'rilib ketgan, binobarin, obrazdagi qattiqqo'llik o'ziga xos joziba kasb etadi.

Roman voqealarining ishtirokchilari qilib olingan boshqa ko'pgina qahramonlar ham shiddatli, jonli, real tuyg'ular, kechinmalar, haqqoniy mulohazalar

dunyosida yashaydi. “Diyonat”da mana shu ikki omil-hayotiylik va badiiylik bir-biriga mohirona qo‘shilib olingani tufayli Otaqo‘zi qalblarni to‘lqinlantiradigan barkamol badiiy tip darajasiga ko‘tarilgan. Gohida insoniy sahovati bilan dillarni xushnud etadi, gohida rahbarlik iste’dodi bilan, topqirlik uddaburronlik, ishbilarmonlik bilan samimiy hurmat-u muhabbatimizni qozonadi, gohida g‘ayri tabiiy xatti-harakatlari bilan ko‘nglimizni ranjitadi. Yozuvchi “Diyonat”ning boshidayoq mana shuni qalamga oladi. “Otaqo‘zi millioner raislarga xos viqor va dabdaba bilan qo‘qqisdan “bostirib” keldi.¹”

Odil Yoqubov qahramon ruhiyati, dilidagi kechgan o‘zgarishlar, bir-birlari bilan almashinib turgan qarama-qarshi tuyg‘ular, murakkab hislar oqimini asarning g‘oyaviy asosiga monandlashtirilgan holda gavdalantiradi, shunga ko‘ra biz Normurod Shomurodovning dard chekishi, ezilishi, ikkilanishlarini sezib olamiz: tog‘a bir jihatdan jiyan ko‘rsatgan iltifotlar, odamgarchilik, halollik bilan izohlanadigan xatti-harakatlardan mamnun bo‘lsa, ikkinchi jihatdan millioner raisning quyushqondan chiqib ketib, hamma joyda faqat o‘zining aytgani, o‘zining deganini amalga oshirayotganidan g‘azablanadi. G‘azablanadi-yu, biroq joni halqumiga keladi: jigari shunday qilayapti-ku, axir. Yana shunisi xarakterliki, romanda his-hayajon, ehtiroslar avji to‘qnashuvlar kuchaygan sari osha boradi, kurashlar, olishuvlar shiddatiga shiddat qo‘shilaveradi. Ayniqsa, Normurod Shomurodov bilan Otaqo‘zi munosabatlari chigallashib, murakkablashib, tarang tortib, hislar, tuyg‘ular oqimida “portlash”lar hosil qiladi, xilma-xil “ag‘dar-to‘ntarish”larga olib keladi, “alg‘ov-dalg‘ov”lar paydo bo‘lishini ta‘minlaydi. Oqibatda Otaqo‘zining kirdikorlari, qilmishlari, zimdan olib borgan qora ishlari oshkor bo‘lib qolganligi ishonarli ko‘rsatilgan.

Romanda shu narsaga alohida urg‘u beriladiki, Otaqo‘zi faoliyati ko‘p jihatlari bilan qishloq hayotini, xalq turmushini yaxshilashga, dehqonlarimizning faravonligini ta‘minlashga, xo‘jalik iqtisodining yuksalishiga va baraka unishiga yo‘naltiradi. Afsuski barakaning ildizi ifloslik, qabihlikka ulangan bo‘lib chiqadi. Halol mehnat, adolat-u soflik emas, balki vijdotsizlik, diyonatsizlik, yolg‘on-yashiq orqali yuzaga

¹ Odil Yoqubov Diyonat. –T.: Sharq, 1998.

chiqqan baraka bo‘lib chiqadi. Kimlarningdir ko‘z yoshi, kimlarningdir baxt-saodati, kimlarningdir nasibasi evaziga kelgan baraka ekanligini sezilib qoladiki, Normurod Shomurodov yana kurashga otlanadi. To‘g‘rirog‘i, kurashishga otlanganlar safiga qo‘shilib, sardorlardan biriga aylanadi. Yana bir sardor sifatida raykom sekretari Abror Shukurov maydonga chiqadi. Uni oxirgi daqiqalarda esga olishimiz, uning jonli qiyofasi “Diyonat”ning so‘nggi boblarida ko‘zga yaqqol tashlana boshlaydi, dastlabki hollarda esa u shunchaki ko‘rinib ketadi, to‘qnashuvlar shiddatiga deyarli ta’sir ko‘rsatmaydi. Asar xotimasiga yaqinlashgan sari Abror Shukurov “kitobiy” emas, chinakam hayotiy obraz sifatida gavdalanib, qalbimizni to‘lqinlantiradi, hayajonlantiradi. U Normurod Shomurodov kabi Otaqo‘zining fazilatlari, qusurlari, kamchiliklariga befarq qaramaydi, ularning ijtimoiy ildizlarini axtarib, millioner rais bilan goh bevosita, goh bavoosita bahslashadi, tortishadi.

Roman xotimasida ham voqealar rivojining shiddati susaymaydi. Odil Yoqubov shunchaki to‘qnashuvlarni yakunlash emas, balki ularning hayot haqiqatini ifodalashi, qahramonlar xarakterlar mantig‘iga mos bo‘lishi, ijtimoiy taraqqiyotning muhim muammolarini yoritishi to‘g‘risida jiddiy bosh qotirgan. Natijada Shomurodovning hayotdan ko‘z yumushini tasvirlash bilan birga bu fojeali voqea zahirida zamondoshlarimiz taqdiriga oid ma’nolar yashirinib yotganligini ishonarli ko‘rsatishga muvaffaq bo‘lgan. Domlaning vafoti haqidagi xabar raykomda byuro boshlanayotgan paytga to‘g‘ri keladi va Abror Shukurov byuro a’zolarining o‘rinlaridan turib, bir lahza sukut saqlashlarini so‘raydi. Mana shu byuroda Otaqo‘zi masalasi muhokama qilinishi kerak edi, Normurod Shomurodov vafoti bilan bu masala sal keyinroqqa suriladi. Aniqrog‘i qahramon faoliyatiga yakun yasash kitobxon hukmiga havola qilinadi.

Tasvirlangan voqealarga uzil-kesil yakun yasalmagani, qahramonlar taqdirining bundan keyin qanday bo‘lishi bashorat qilib aytilmagani, ularning hayotdagi o‘zgarishlar yakka-yu-yagona to‘xtamga keltirib qo‘yilmagani “Diyonat” romaniga alohida tabiiylik, hayotiylik baxsh etadi. Yana shunisi diqqatga sazovorki undagi turmush xodisalari, qahramonlarning xatti-harakatlari, fikr-o‘ylari, mulohazalari, kechinmalari keng va katta miqyosdagi epik tafakkur talablariga muvofiq ravishda

tasvirlangan. Mana shu fazilatlarini “Diyonat” ning Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor kabi romannavislarimiz an’alarini hozirgi zamon talablariga mos xolda rivojlantirib, ularga yangi mazmun baxsh etayotgan peshqadam yozuvchilarimizning epik asarlari safidan o‘rin olganligini ko‘rsatdi. Odil Yoqubovning bu romani keng miqyosda epik tafakkur talablariga to‘la javob beradi. Yozuvchining “Oqqushlar, oppoq qushlar”¹ romani g‘oyaviy jihatdan “Diyonat” romanining davomidek tuyuladi. Agar avtor “Diyonat”da o‘zboshimchalik, ko‘zbo‘yamachilik, qonunbuzarchilik keng yoyilgan davrni aks ettirgan bo‘lsa, bu romanda o‘lkamizda xuddi o‘sha illatlarga qarshi boshlangan poklanish deb atalgan va hamma sohada adolatni barqaror etish uchun 80-yillarning o‘rtalarida bo‘lgan intilishlarni qalamga oldi.

Kurashlar, binobarin, roman markazida esa Sharhim shavvoz obrazi turadi. Romandagi Shavvoz siymosida mehnatkash xalqimiz, asl dehqon-bog‘bon xarakteriga xos fazilatlar, shuningdek, ayrim ojizliklar yaxshi namoyon bo‘lgan. Shavvoz butun umri mehnat bilan o‘tgan, el-yurt g‘amida o‘zini, shaxsiy, hayotini, huzur-halovatini butunlay unutib yuborgan yil o‘n ikki oy erta-yu-kech mehnat bilan bo‘lib tug‘ilgan yurtining chiroyi va ne‘matlaridan bebahra qolgan; vafodori Oysuluv ko‘nglini ham ololmagan, sog‘lig‘i haqida qayg‘urmagan. Oxirida u buning uchun o‘kinadi, ammo hayotini qayta boshlash imkoniyati bo‘lganida, u yana o‘shanday umr kechirishini tabiiy o‘ylaydi, chunki u mehnat uchun tug‘ilgan, el-yurt g‘amidan boshqasini bilmaydigan odam. Shovvoz nopoklikni, g‘irromlikni aslo diliga sig‘dira olmaydigan shaxs. Qarangki, Fotih otasi tengi bu odamga asossiz dag‘dag‘a qiladi, halol odamni nopok ishga undaydi, yo‘rig‘iga yurmagach, ishdan haydaydi. Shovvoz birda mard, tanti, kezi kelganda keskin, qahri qattiq, shiddatkor, birda mayin-muloyim, qalbi daryo, sahovatu muruvvatga to‘la, birda o‘ta sodda, go‘l, birda ko‘pni ko‘rgan donishmand xullas, g‘aroyib tabiatli odam. Uning yigitlik sha‘ni oyoqosti qilingan o‘g‘liga qat’iy so‘zini tinglaganda, qabih kimsa –Fotih va qallob Muzaffarga hamla qilgandagi, Muzaffar “himma”tini rad qilgandagi holatini ko‘rganda kitobxon shijoatiga qoyil qoladi, bu odamning ishdan haydalgan, shaxsiy hayoti umr yo‘liga

¹ Odil Yoqubov, Oqqushlar, oppoq qushlar. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.

bir nigoh tashlab, o'tgan behalovat kunlarini eslab Oysuluvning nochor ahvolini, bu beminnat, fidoiy umr yo'ldosh oldidagi qarzlarini o'ylab ko'nglida kechgan hazin nidolari, o'g'li avariya uchragan, xususan, Oysuluvdan judo bo'lganda chekkan alamli zarlarini, ko'ngli faryodlarini o'qiganda kitobxonning qalbi larzaga keladi. Shovvozning sho'xlik bilan o'tgan o'smirlik, yigitlik sarguzashtlari, olovli sevgi tarixi, jangda ko'rsatgan jasorati, do'stlarga sadoqati-o'zi bir doston. Do'stlariga, muruvvatga muhtoj shaxslarga munis-mehribon bu odam g'animlarga nisbatan o'ta shavqatsiz. U urush yillari jang maydonida samuray boshini sapchaday uzib tashlagan, bugun esa Muzaffar bilan Fotihdek mana men degan qoyalar uning qahri oldida dovdirab, o'zlarini yo'qotib qo'yadi. Shovvoz o'zining shu xildagi g'aroyib hayot yo'li bilan, hayotdagi nurli, quvonchli, zavq-shavqqa to'liq kunlari, alamli iztiroblari, tabiatidagi ziddiyatlari, kuchli va ojiz jihatlari, boringki bor bisoti bilan kitobxon ko'nglini o'ziga asir etadi. Bu odam qismatida ham ulkan baxt-saodat, visol, hayot lazzati, zavq-shavqlarini, ham ayanch mung, ham nurli ohang, mardona bir ruhni jo etish, polifonik tasvirga erishishi-bu chinakam san'atkorga, chin san'at asarigagina muyassar bo'ladigan fazilat. Shu fazilatlarni Odil Yoqubov bizga ta'sirli tarzda yetkazib berdi desak mubolag'a qilmaymiz.

“Oqqushlar, oppoq qushlar” hozirjavoblik bilan yozilgan, hali tugamagan hayotiy jarayonlar haqidagi roman bo'lganidan unda ko'tarilgan ma'naviy-axloqiy muammolarning barchasi badiiy yechimini topmay qolganday, muallif ayrim chigal, keskin mojarolar yechimini berishda bir oz shoshganday ko'rinadi. Roman ijodiy baholangan holda u haqda tanqidiy gaplar ham aytiladi. Tajribali adib poklanish yo'lidagi qiyinchiliklar, yangidan tug'ilayotgan hayotiy muammolar dramasini yana ham keskinroq, shiddatliroq tarzda butun murakkabligi bilan berish maqsadida asar ustidagi ishni davom ettirdi, romanning kitob variantiga bir qator o'zgartirish, to'ldirishlar kiritdi.

1.2.Adibning dramaturgiya sohasiga qo'shgan hissasi.

Odil Yoqubov dramaturgiya sohasida ham barakali ijod qilgan. Elliginchi yillarda yaratilgan “Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim”, “Yurak yonmog'i kerak”, “Olma gullaganda” kabi dramalari o'z davrida yaxshigina dovrug' qozongan edi.

Dramaturgiya sohasidagi o‘ttiz yillik tanaffusdan so‘ng, 90-yillarga kelib, Odil Yoqubov Amir temur hayotining so‘nggi kunlari, shaxsiy-intim turmushi haqida “Fotihi muzaffar” yoki “Bir parivash asiri” nomli sahna asarini yaratdi. Unda dramaturg jahongirni mutlaqo kutilmagan rakurslarda aks ettirdi. Dunyoning taqdiriga xo‘jayinlik qila oladigan sohibqiron, vaqti kelsa, o‘zining shaxsiy hayotiga ega bo‘lmaganligi, o‘z baxtini ta‘minlay olmaganligi chuqur insoniy hamdardlik va yetuk badiiylik bilan aks ettirildi.

Odil Yoqubovning mustaqillik yillarida yaratgan “Bir koshona sirlari” asari jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. “Bir koshona sirlari”¹ asari 2000 yilning eng yaxshi dramasi sifatida “Ofarin” mukofoti bilan taqdirlandi. Bu dramada inson taqdirining yechib bo‘lmas darajada chigal va tushunarsiz ekanligi jonli timsollar asosida ko‘rsatilgan.

Drama nomiga qarab u detektiv-sarguzasht asar emasmikan, degan o‘yga boramiz. Darhaqiqat unda qisman detektiv asarlarga xos ayrim xususiyatlar bor.

Asar matnini spektakl bilan solishtirib, bir narsaga hayron qoldim: drama aynan sahnaga ko‘chirilgan edi –ikki parda, to‘rt ko‘rinish, muqaddima va xotima, unda ishtirok etuvchilar ham muallif qanday sharhlagan, ta‘riflagan bo‘lsa, o‘shanday; asar matnini tahrir qilish, qisqartirish yoki qo‘shimchalar kiritish hollari aytarli yo‘q. Ochig‘ini aytish kerakki, keyingi yillarda sahnada bir qator professional mualliflarning asarlari paydo bo‘ldi. Tadqiqotchilar ularni til badiiyati jihatidan o‘ta g‘arib deb baholaganlar. Bu xil sahna “asar”laridan farqli o‘laroq, “Bir koshona sirlari”ni adabiyotshunos U.Normatov tili –yozuvchi-san’atkor, professional dramaturg tili, ham hayotiy-tabiiy, ham sayqal topgan chinakam badiiy, sahnaga mos harakatdagi til deb baholagan. Keyingi paytlarda yozuvchi-shoirlar, munaqqidlar tilida bir gap aylanib qoldi: asar, avvalo, ijodkorlarning o‘zi uchun yozilarmish, chinakam, yuksak san’at asari faqat “xos odamlar” uchun yaratilarmish; asarning ko‘pchilikka tushunarli, hammabopligi yuksak badiiylik mezoni bo‘lolmas emish. Bu gaplarda muayyan asos bor albatta. Faqat o‘zi, ko‘ngil taskini uchun yozadigan qalamkashlar, shoirlar, shuningdek, “xos odamlar”gagina mo‘ljallangan, ulargina

¹ Odil Yoqubov. Qaydasan Moriko. –T.: Sharq, 2004.

tushunadigan, qadrlaydigan va ayni paytda yetuk asarlar ham bor. Badiiy ijod qoliplarga sig'maydigan jarayon. Ko'ngil dardini o'zgalarga, ko'pchilikka, butun xalqqa, bashariyatga yetkazish ishtiyoqi bilan qalam tebratgan, tebratayotgan ulug' ijodkorlar yo'lini kamsitishni munaqqid U.Normatov odobdan deb hisoblaydi¹. Bir paytning o'zida ham jiddiy teran ma'noli, noyob badiiy ixtiro, kashfiyot, ham ko'pchilikka tushunarli, butun millatni, qolaversa, jahonni hayratga, larzaga solgan asarlar yo'q deysizmi! Aslida chin san'at asarlarining ko'pchilikka yetib borishi barchani birdek hayrat va larzaga solishi ijodkorning, qolaversa, milliy adabiyotning baxti, omadi, XX asrning buyuk so'z ustalari –E. Xeminguey, G. Markes, S.Esenin, Ch. Aytmatov, o'zimizda Qodiriy va Cho'lponlarning omadi ana shunda drama “xos” –professionallar bilan barobar turli toifa yosh-u qari barchaga birdek tushunarli, barchani hayajonga solish, o'yg'a toldirish quvvatiga, sehriga molik asar ekanligi adabiy jamoatchilik tomonidan tan olingan.

Drama nomini o'qib, detektiv sarguzasht asar emasmikan, degan o'yg'a boramiz. Darhaqiqat, unda detektiv asarlarga xos ayrim xususiyatlar bor. Dramadagi voqea-mojarolar asosan yangi chiqqan tadbirkor-millioner xonadonida, uning hashamatli ko'rkam koshonasida, ayni shu koshona-ulkan moddiy boylik bilan bog'liq holda kechadi. Bu xonadonni maxsus soqchilar qo'riqlaydi, oshpazu xizmatchilar xonadon egalari xizmatiga kecha-yu kunduz shay turadi. Bu xonadonning sobiq bekasi kechagi oddiy do'kondor, shaddot ayol Dildora, uning qo'lida ishlaydigan oddiy tachkachi Sarvar qanday qilib qisqa fursatda bunday hadsiz boylik-martabani qo'lga kiritdi, degan savol shuningdek, ularning oilaviy tarixi tomoshabinni qiziqtiradi, spektakl davomida bu savollarga javob ham topadi. Biroq asarni, undagi personajlarni harakatga keltirgan badiiy asos-bosh muammo bu emas. Asosiy narsa moddiy boylik bilan tabiiy tuyg'ular, boqiy qadriyatlar orasidagi nomuvofiqliklardan kelib chiqqan zuddiyatlardir; aniqrog'i, mazkur drama qalb koshonasi sirlari, shaxs jumbog'i, inson qalbining turfa jilolari, g'arbiy sinoatlari to'g'risidagi asardir. Drama bilan tanishar ekanmiz yana bir jumboqqa duch kelasiz. Asar voqealari muhtasham koshona-badavlat xonadonga yondosh qo'shni, mo'jaz,

¹Normatov U. Qalb koshonasi sirlari. // O'zAS. 2001, 2 mart.

kamtarona, oddiy, ziyoli oilasidagi vaziyat bilan barobar kechadi. Bir qarashda bu kamtarona hayot kechirayotgan pokiza oila qo'shni badavlat xonadonga qarama-qarshi qo'yilayotgan, bu oilaning turmush tarzi namuna qilib ko'rsatilayotganday tuyuladi. Biroq dramaturg bunaqa jo'n talqindan qochgan. Ziyoli oila a'zolarining qo'shni xonadonga munosabati ikki xil: er sarvarlar turmushidan hazar qiladi, xotin esa bu xonadon a'zolariga chin insoniy munosabatda bo'ladi. Sekin-asta bu ideal-namuna bo'lib ko'ringan oilaning o'ziga xos ichki ziddiyat muammolari ayon bo'ladi. Buyuk jarroh Darveshali turmush o'rtog'i, shifokor Gulnozani har qancha yonib sevmasin, uning kuyida telbalarcha parvona bo'lmasin, o'zgalardan qizg'anmasin, baribir bu ayolning ko'nglini ololmaydi, unga to'kis baxt ato etolmaydi. O'n yildirki ular tirnoqqa zor. Gulnoza ham o'z navbatida eri va ustozini Darveshalini har qancha hurmat qilmasin, baribir, o'zining undan qandaydir begona his etadi. Asarda bular haqida oshkora gap yo'q; bu nozik ruhiy dramatik jarayonni yurakdan his etib turasiz va uning intihosini yurak hovuchlab kutasiz. Uzoq davom etgan bu nozik ruhiy jarayon pirovardida portlashga olib keladi. Sarvar uchun eng og'ir damlarda Gulnoza ham qo'shni, ham shifokor sifatida uning yonida turib bu samimiy yigitning qalb asrorini kashf etadi, unga nisbatan hali sevgi deb bo'lmas, qandaydir ismsiz mayli uyg'onadi, ko'nglida u bilan haj safariga birga ketish istagi tug'iladi. Bundan ogoh bo'lgan Darveshali rashk, alam olovida jazavaga tushib, tilga olib bo'lmas so'zlar bilan Sarvar va Gulnozaga hamla qiladi. Shu tariqa sehrli qo'llari, mungsiz iste'dodi bilan o'zi qayta jon ato etgan odamni o'zi jondan judo etadi. Bunday shavqatsiz hamlasi bilan o'z navbatida Gulnozaning qalb koshonasini ham vayron etadi. Shunisi muhimki, bunday shavqatsizlik nisbatan na Sarvar, na Gulnoza qarshi zarba berish, shavqatsizlik qilish yo'lini tutadi. Sarvarning beozor o'limi, o'lim oldidagi vido so'zlari, Gulnozaning yuksak odob ila izhor etgan o'kinchlar har qanday kuchli javob zarbalaridan-da ta'sirchanroq chiqqan.

Drama markazida turgan personajlar Sarvar va Dilara turmush jumboqlari, bu ikki murakkab shaxsning yurak sirlari ifodasi ham odat tusini olgan talqinlardan yiroq. Sarvarning o'z xotinini taloq qilib, qo'shni ayol Gulnozaga moyil ko'rsatishi qandaydir ma'naviy aynish, boyvachchalik, mol-dunyo tufayli "qutirish" oqibati

emas. Bu yigit uddaburon xotini orqasida omadi kelib tadbirkor-millionerga aylangan, lekin boylikka hirs qo'ymagan, o'sha samimiy insonligicha qolgan. U tadbirkorlik yo'lida ham halol yo'ldan boradi, pora bilan ish bitiradigan "ipirindi-sipirindi tadbirkorlar"ni, "qalang'i-qasang'i aferistlar"ni jinidan battar yomon ko'radi. Uning ko'ngli nopoklikni, andishasizlik va behayolikni also ko'tarolmaydi, "xotining marxamati bilan boyvachcha bo'ldi" qabilidigi ta'nalarga, erkatoiy ko'hlik xotinning behayo sho'xliklari-yu tantiqlariga aslo chidolmaydi, bunday turmushga qat'iy chek qo'yadi. Biroq taloq-ajralish ham uning uchun najot-mushkulot chorasi bo'lolmay orada biri-biridan shirin farzandlar bor. Boz ustiga xotin undan ko'ngil uzib ketolmaydi, ko'ngli tilaganiga esa yetolmaydi. Shu tariqa yigit hadsiz boylik egasi bo'lsa-da, qo'li har joyga yetsa-da, baribir o'zini ojiz, notavon, baxtsiz his etadi; faravon, dabdabali hayot unga aslo tatimaydi.

Masalaning chigal tomoni shundaki, ko'rinishidan erkatoiy, shaddot, yengiltak, tantiq ayol Dilara aslida pok, xiyonat ko'chasiga kirmagan. Uning rashk, g'azab olovida yongan eriga qarata "Erkalik qilsam qilgandirman, yengillik qilgan bo'lsam qilgandirman. Lekin tepamda Xudo, biror it tekkani yo'q jismimga. Jismim ham pok, vijdonim ham"¹ degan dil so'zlariga ishonmay ilojingiz yo'q. U alam, achchiq ustida erkin, farishta ayol Gulnozani haqoratlar bilan bulg'asa-da, Sarvarning ham Gulnozaning ham begunoh ekanini biladi. U Sarvarsiz turmushni tasavvur ham qilolmaydi; dunyoga kelib ko'rgan eng totli, eng go'zal, eng baxtiyor damlari Sarvar bilan o'tkazgan kunlar ekanini aslo unutilmaydi. Sarvarsiz mol-dunyo ko'ziga ko'rinmaydi. Diloraning Sarvarga qarata: "Sizsiz yorug' dunyo qorong'u menga, jonim. Jonginam, haydamang meni... Shu xonadoningizdan bittayu bitta hujra bersangiz bo'ldi. Bolajonlarim bilan kelib turay. Mayli, boshqa xotin oling. Men xizmatlaringizni qilay. Cho'ri bo'lay, malay bo'lay. Faqat haydamang. Sizni ko'rib yurish bahridan judo qilmang, men baxtiqaroni"¹, degan iltijolarini tinglaganda kishi o'zini qo'yarga joy topolmay qoladi. Odil Yoqubovning mahorati shundaki, asarda biror timsol jo'n tasvirlanmaydi. Jumladan, Sarvar va Diloraning chigal

¹ Odil Yoqubov. Qaydasan, Mariko. –T.: Sharq, 2002.

¹ O'sha manba.

munosabatlari oq yoki qora tarzida talqin etilmaydi. Sarvarning o'z xotinini taloq qilib, Gulnozaga mayl ko'rsatishi uning boyvachchaligi oqibati emas. Balki, o'zini tushunishni istagan toza ko'ngilning istagidir. Sarvar –boylikka hirs qo'ymagan, insoniyligini yo'qotmagan, haromdan jirkanadigan shaxs. Ajrashsalar ham undan ko'ngil uzolmagan xotini, begunoh farzandlari borligi bu o'ychan yigitni behad qiynaydi. Shu tariqa, hadsiz boyligi bor, uzatgan joyiga qo'li yetadigan Sarvar baxtsizligicha o'lib ketadi.

Xullas, Sarvar ham, Dilara ham, Darveshali ham, Gulnoza ham dramadagi barcha yetakchi personajlar go'zal shaxslar, bugungi kunning asl, bokira, baxtli bo'lishiga, ehtiromga loyiq odamlaridir.

Sarvar bilan Dilara oilasidagi faravonlikni, peshqadam ziyolilar Darveshali bilan Gulnoza orasidagi o'zaro xurmat-ehtirom, el-yurt ishiga, kasb-koriga sadoqatni kimlar orzu qilmaydi deysiz! Nega shunday bo'ldi, bu ikki oilada ko'ngilsizliklar ro'y berdi? Nega bu oila a'zolari baxtsiz? Boshga tushgan savdolarga, turmush chigalliklariga najot topolmay o'rtanadilar?

Buni hayot deydilar, ko'ngil ko'chalari deydilar. “Bir koshona sirlari” dramasi inson hayoti, qalbi naqadar murakkab, sir-sinoatga boy, uni anglash, qadrlash aslida o'ziga xos ilmdir, yuksak san'at ekanini yana bir karra bizga eslatishi, bizni jiddiy o'y-mushohadalarga undashi bilan qimmatlidir.

Asardagi asosiy ziddiyat moddiy boylik bilan ma'naviyat, o'tkinchi mayllar bilan asl tuyg'ular, boqiy qadriyatlar orasidagi ziddiyatlardir. Ushbu dramada qalb kashonasini daxlsiz saqlash zarurligi, inson qalbining mantiqqa bo'ysunmaydigan junbushlari ta'sirli ko'rsatilgan.

Dramaturg inson baxti uchun hisobsiz moddiy boylik yetarli bo'lmaganiday, iste'dodu halollikning o'zi ham kifoya qilmasligini ko'rsatadi. Dramadagi barcha personajlar, aslida, ma'naviy go'zal, baxtga, ehtiromga loyiq odamlar. Lekin inson taqdirining chigal va tushunarsizligi sabab ularning hammasi ham baxtsiz. Adabiyotshunos Q. Yo'ldoshevning ta'kidlashicha: “Drama insonning o'ta murakkab yaratilgini, uni anglab yetish mushkul ekanini aks ettirishi bilan qimmatlidir”¹.

¹ Yo'ldoshev Q. Tuyg'ularning rangin jilosi // O'zAS, 2004. 16 aprel.

Odil Yoqubovning tilga olingan asarlari insonga buyuk muhabbatning samarasi bo'lganligi uchun ham ularda odam teran anglangan, inson g'oyat chigal hayotiy vaziyatlarda ham chin ma'naviy sifatlarini saqlab qola bilishga qodir ijtimoiy –ruhiy kuch ekanligi juda ishonarli vat a'sirli ko'rsatib berilgan.

1.3. Odil Yoqubov ijodida tarixiy mavzu

Odam davrni yaratgani kabi davr ham insonni shakllantiradi. Adabiyotshunoslarning fikricha “Yaratiq yaratganning mevasi bo'lgani uchun ham unda yaratuvchining nuqsi qoladi. Ya'ni odam o'z davriga bir qadar o'xshaydi. Lekin odam ham, davr ham o'tkinchidir. Ularga xos xususiyatlarni tutib qolish mushkul. Muayyan davrda yashab o'tgan insonlarning qiyofasi, ruhiy dunyosi o'sha vaqtda dunyoga kelgan asl badiiy asarlarda namoyon bo'ladi. Asarlarida davrga xos belgilarni tashiydigan qahramonlarni tasvirlash ulkan ijodkorlarning nasibasidir”². XX asr 20-yillarining romantikasi, 30-yillar talotumlari, urush suronlari, tuklanish azoblari, turg'unlik havosizligini boshidan kechirgan, oshkorlikning darg'alaridan bo'lgan, millatdoshlar ruhiyatida mustaqillik sezimlarini shakllantirgan va odamlar orasida hamisha yorug' yuz bilan yashayotgan Odil Yoqubov ana shunday adibdir.

Tarixiy janrning bizda ikki ko'rinishi bor: Bir tur asarlarda tarixiy faktlarga izchil rioya etiladi, tarixiy hodisalarni badiiy gavdalantirish yozuvchining asosiy muddaosiga aylanadi; ikkinchi tur asarlarda esa tarixiy faktlar, shaxslar asos qilib olinadi-yu, tarixiy faktlarning izchil ifodasi, tarixiy shaxslarning batafsil biografiyasi emas, balki shu faktlar bahonasida muayyan ijtimoiy-axloqiy muammolarni ko'tarish, tarixiy faktlar orqali “gap aytish” birinchi o'ringa chiqadi. “Ulug'bek xazinasi”¹ romani keyingi turga mansub desak xato qilmaymiz. “Ulug'bek xazinasi” 1970-1973 –yillarda yozilgan, 1974-yilda alohida kitob bo'lib chiqqan edi. Bu romanda yozuvchi asar qahramonlari boshdan kechirgan vaqealarni ko'rsatishga emas, balki ularning ichki dunyosini ochish asnosida Ulug'bek davrining badiiy manzarasini chizishga e'tibor beradi. Ma'lumki hayotga faol aralashgan kishilar hamisha ziddiyatlar qurshovida bo'ladi. Hukmdorlar mavqelariga ko'ra jamiyat ishlariga faol

² Yo'ldoshev Q. Tuyg'ularning rangin jilosi // O'z AS, 2004, 16 apreel.

¹ Yoqubov O. Ulug'bek xazinasi. –T.: Adab va san'at nashriyoti, 1994.

aralashishga majburlar. Har bir inson o'z hayotidagi burilish davrlarida, kuchli qarshiliklarga duch kelganda turli-tuman o'ylarni boshidan kechiradi. Romanda bosh qahramon ana shunday o'ylar og'ushida ko'rsatiladi. Mashhur boshqird yozuvchisi Mustay Karim yozuvchiga yo'llagan maktubida deydi: "Romanning g'oyaviy qudrati, emosional ta'sir kuchi zo'r. Ayniqsa uning zamon bilan hamohang bo'lganligi, chin ma'nadoga zamonaviy asar darajasiga ko'tarilganligi muhimdir...

Zotan tarixiy asar odamlarni hozirgi zamonga munosib turmush kechirishga, yaxshi yashashga da'vat etish kerak. Sizning romaningiz shunday asarlar sirasiga kiradi"². Roman kompazision jihatdan puxta ishlangan. Voqealar, xarakterlar silsilasi kuchli, bir-biri bilan mantiqan puxta bog'langan, bir voqea ketidan ikkinchisi oqib kelaveradi.

Tarixiy romanning vazifasi faqat tarix haqiqatini jonli, haqqoniy gavdalantirish emas, balki o'tmish saboqlarini yodga tushirishdan ham iboratdir. Odil Yoqubov fikricha, insoniyat hamisha o'zi bosib o'tgan yo'lga bot-bot nazar tashlab turishi, undan tegishli saboqlar chiqarishi lozim. "Ming afsuski, o'tmishning achchiq saboqlari goho unitiladi, tarixda yo'l qo'yilgan xatolar takrorlanib turadi",-deydi adib. "Ulug'bek xazinasini" hammadan burun tarix haqiqatidan hozirgi avlodlarga ibratli saboq beradigan asardir.

"Ulug'bek xazinasini"ning tasvir ritmikasi, boshqa tarixiy asarlarnikidan farqli o'laroq, xiyla tezkor, shiddatli. Asarda dramatik kartinalar, ichki ruhiy kechinmalar, xarakterlar va g'oyalarning oshkora to'qnashuvi asosiga qurilgan yorqin lavhalar ko'p. Bir tomondan, romanda biz talay kuchli ruhiy kolleziyalar tasvirini o'qiymiz. Ulug'bek iztiroblari, Abdullatifning ota o'limidan keyingi vasvasa-yu ruhiy qiynoqlari, xususan, bog'dagi so'nggi kechadagi dahshatli holati butun keskinligi bilan berilgan. Ikkinchi tomondan, yozuvchi xarakterlararo to'qnashuv tasviriga ham katta e'tibor bergan. Ulug'bekning shayx Nizomidin bilan musohabasi, o'g'li Abdullatif bilan yuzma-yuz to'qnashuvi, Ali Qushchi bilan Mavlono Muhiddin o'rtasidagi dahanaki janglar, zindondagi tortishuvlar, olimning Abdullatif bilan takror –takror to'qnashuvlar bular shunchaki olishuv, tortishuvlar bo'lmay, bir-biriga zid

² Odil Yoqubov. Qaydasan, Mariko. –T.: Sharq , 2002.

xarakterlarning, ashaddiy raqiblarning turli g'oya, e'tiqodlarning to'qnashuvidir. Adib o'z otasiga qarshi bosh ko'targan Abdullatif ruhiy olamini ochishga, tuyg'ular tizimini ko'rsatishga e'tibor beradi. Yozuvchi Abdullatif tabiatidagi padarkushlik ildizini uning mutaasib kimsalar ta'sirida tarbiyalangani va ulug'bekni islom diniga qarshi, deb o'ylaganida ko'radi. Bu holat Ulug'bek Abdullatifga: "Menga hech narsa kerak emas. Bu toju taxt, saltanat, shon-shuxrat bari o'zingga buyurgay, faqirga yolg'iz rasadxonani in'om etsang bas. Asarda Abdullatif taxt yo'lida hech narsadan qaytmaydigan qonko'r sifatida ko'rsatilmaydi. Yozuvchi uni o'qimishli, sinchkov, iste'dodli, ammo o'zini otasi tomonidan qadrlanmagan o'g'il deb biladigan sershubha shaxs tarzida tasvirlaydi. Yozuvchi Ulug'bek shaxsiyatini tasvirlashda ham yolg'iz yorqin ranglardan foydalanavermaydi, uni ikkilanayotgan, og'ir o'ylar girdobida qolgan odam sifatida tasvirlanadi. Unda goh toj-taxtni topshirib, ilmiy ish bilan shug'ullanish istagi, gohida dushmanlarni yakson qilib tashlash tuyg'usi g'olib chiqayotganini xaqqoniy aks ettiradi.

Romanda Ali Qushchining sadoqati, Mavlono Muxiddinning sotqinligi, shayx Nizomiddin Xomushning insofsizligi, tuzukkina shoir Abdullatifning taxt ilinjida o'zgalar qo'lida qo'g'irchoqligi ishonarli ta'svir etilgan. Adib asar qahramonlari qismati misolida sirdan shavqatsiz va adolatsizday ko'ringan hayotning, aslida g'oyat adolatli hamda mehribon ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Ulug'bekning xazinasi faqat u yozgan va yiqqan ilmiy kitoblargina emas, u avvalo odamlar orasidagi adolat, iymon, e'tiqod, olijanoblik, halollik singari qadriyatlardan iboratligi, odamlar ko'nglidagi bu boylik hech qachon bitmas xazina ekanligi romanda juda ishonarli aks ettiriladi. Odil Yoqubovning olam hodisalari va odamning mohiyati haqidagi zalvorli o'ylari, salmoqli mulohazalari "Ko'hna dunyo" romanida o'zgacha bir yo'sinda aks etgan. Roman adib ijodidagi tamomila yangicha yo'nalishda bitilgan asardir. Asarda yozuvchi bu ko'hna dunyoning chigalligi, tushunarsizligi, rejalarga bo'y bermasligidan paydo bo'lgan hayratlarini aks ettiradi. Muallif bu asarda inson, uning hayotdagi o'rni, o'z taqdirini belgilashdagi ishtiroki, adolat, haqiqat va ularning tantanasi to'g'risidagi qarashlarini turlicha tabiatli shaxslar qismati misolida, keskin va qaltis burilishlarga boy shiddatli voqealar asnosida ifoda etadi. Adabiyotshunos Q.

Yoʻldoshevning fikricha “Yozuvchi romanda koʻproq inson hayoti maʼnisini anglamoqchi boʻlgan faylasuf sifatida koʻrinadi.

Yozuvchi talqinidagi dunyo, odamlar bir qatlamli, bir tarkibli emas. Ular gʻoyat murakkab va oʻta chigal toʻqimalardan iborat. Romanda Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Gʻaznaviy, Ibn Shahvoniy, Ali Gʻarib, Abul Hasanak, Amir Masʻud, Xatlibegil obrazlarining talqini oʻzbek adabiyotida yangilik boʻldi. Asarda turkiy xalqlar tarixida yorqin va oʻchmas iz qoldirgan, tarixda qudratli imperiya qurgan Mahmud Gʻaznaviy hayotining tahlila va gumonlarga toʻla soʻnggi davri aks ettirilgan. Dunyoning tartiblari shunday chigalki, aslida kuchli qudratlimi yoki ojiz qudratlimi ekanini bilib boʻlmaydi. Jahongirman deganlar ojizlar qoʻlida baʼzida oʻyinchoq boʻladilar. Dunyoni zir titratgan shahanshoh Mahmud Gʻaznaviy vazirlar qoʻlida oʻyinchoq, sultonni oʻynatayotgan vazirlar esa, muttaham Abu Shilqimning nayranglaridan zir titramadi”¹.

Yozuvchi talqinidagi dunyo, odamlar bir qatlamli, bir tarkibli emas. Ular gʻoyat murakkab va oʻta chigal toʻqimalardan iborat. Shuning uchun ham qilichidan qon tomgan yovuz sulton tasviri oʻquvchini achintira oladi.

Umrida biror kishiga yaxshilik qilmagan yovuz Piri Bukriyga kishining rahmi keladi. Muallif Mahmud Gaʻznaviy dunyoni titratgan hukmdorni goh shafqatsiz jallod, goh ojiz banda, goh koʻngli boʻsh odam sifatida tasvirlaydi va bu tasvirga oʻquvchini ishontiradi. “Ulugʻbek xazinasi” romanida boʻlgani kabi adib bu yerda ham qahramonlari hayotini xronologik tarzda hikoya qilish yoʻlidan bormay, ikki alloma hayotidagi jiddiy bir palla bor-yoʻgʻi bir oydan oshiqroq davr hodisalarini qalamga oladi Qahramonlar hayotidagi bu palla shunday bir dovonki, bu dovondan ularning butun-bosib oʻtgan yoʻli, oʻtmishi va kelajagi yaqqol koʻrinadi. Voqealar sodir boʻlgan maskan shunday bir bekatki, bu bekatda gʻoyat xilma-xil odamlar toʻqnash keladilar. Bu yerda umr boʻyi davom etgan ziddiyatlar maʼlum intihosiga yetadi, koʻngillarda orom boʻlib yotgan dard-u hasratlar toʻkib solinadi, siru asrorlar oshkor boʻladi, umrlar sarhisob qilinadi.

¹ Yoʻldoshev Q. Yoniq soʻz. –T.: Yangi asr avlodi 2006.

Roman tarixga sinfiy yondashish talabi ustuvor bo'lgan, jahongir shohu sultonlar haqida ijobiy gap aytish man etilgan, jumladan, Sulton Mahmud G'aznaviyga nisbatan salbiy munosabat avj olgan pallada ko'tarilgan kezlarda dunyoga kelgani tufayli, bu obraz talqinida davr ruhi asoratlari ma'lum darajada o'z muhrini qoldirgan. Yozuvchining mahorati shundaki, romanda mana shu xususiy, tasodifiy xarakterdagi hodisalar juda katta ma'no beradi, davrning ulkan tarixiy haqiqatini, jiddiy dramasini ochishga xizmat etadi. "Ko'hna dunyo" G'aznaviy haqidagi ilmiy risola emas. Adabiy asarda adib o'z badiiy niyatidan kelib chiqib, tarixiy shaxslarga turli nuqtai nazardan yondashaverishi mumkin. "Ko'hna dunyo"da sulton ko'proq mustabid sifatida gavdalandirilgan ekan, bu ham umuman olganda tarixiy haqiqatga zid emas, bu murakkab tarixiy siymo, hayotda buning uchun yetarli asoslar bor.

Asardan olingan quyidagi parcha e'tiborga loyiq: "Sulton, dilida ajib bir nur, qoqsuyak va vujudida favqulodda bir kuch, hamon tasir-tusir ot surib borar, u bilan uloqcha o'rtasi tobora qisqarmoqda edi. Nihoyat uloqchani quvib yetdida, lochinday chang solib ko'tarib oldi. Sulton hayajon ichida egilib, dir-dir titrayotgan uloqchani yerga qo'yib yubordi, qo'yib yuborish bilan dilidagi ajib bir chirog' "Lop" etib yondida, vujudida o'zgacha bir holat, qandaydir sirli, ilohiy bir holat sodir bo'ldi. Hatto o'ng biqinidagi og'riq ham tappa to'xtadi, ko'ziga qorong'u ko'ringan olam birdan yorishib ketdi"¹.

Bu tasvir qancha o'lkalarni bosib olgan, birgina imosi bilan minglab odamlarni o'ldirishdan qiynalmagan Mahmud G'aznaviy holatining ifodasi. Ayni vaziyatda shoh g'oyat nurli, ko'ngli ezguliklarga to'la qilib tasvirlangan. Endi ayni kayfiyatni tuygan sultonning undan salgina keyin tushgan ruhiy holati tasviriga diqqat qaratilsa: "Navkarlar yordamida aravaga chiqqan sulton birdan holsizlanib boshini yostiqqa qo'ydi, qo'yarkan, ko'zi yana osmonga tushdi. Lekin boyagi artilgan shishaday tiniq osmon o'rniga tubsiz choxday zimiston bo'shliqni ko'rdi". Bu tasvir insonning tasavvuri ham, kayfiyati ham o'zi singari omonat va o'tkinchi ekanligi aks etgan. Sultonning bolalik jo'rasi Malikul sharob esa ayni daqiqalarda: "...Ollo taolo o'z

¹ Odil Yoqubov. Ko'hna dunyo. –T.: Sharq, 2004.

bandasiga shunday aql-zakovat ato qilibdi. Bandasi esa... nechun hamisha aqlga zid ishlar qildi? Nechun faqat boshiga musibat tushgan chog'laridagina yaxshilik va ezgulikni o'ylaydi? Nechun o'zi choh yoqasiga borib qolgandagina qilgan gunohlarini, boshqalarga o'tkazgan jabru sitamlarini eslaydi?"¹ deya xayol suradi. Mana shu tasvirlarda asar mohiyati aks etgan, adibning inson, uning hayoti haqidagi nihoyasiz o'ylari ifodalangan.

Yozuvchi biror obrazni tasvirlaganda uni har jihatdan ko'rsatishga harakat qiladi. Shuning uchun ham Mahmud G'aznaviy goh shafqatsiz hukmdor, goh odamlarga yaxshilik qilishga intilgan ojiz bemor sifatida tasvirlanadi. Asarda yaxshilik bilan yomonlikning orasi qilcha ham kelmasligi G'aznaviy xatti-harakatlari orqali ko'rsatiladi.

"Ko'hna dunyo" romanida butun insoniyatning ulug' farzandlari hisoblangan Beruniy va Ibn Sino obrazlari ham katta mahorat bilan tasvirlangan. Yozuvchi Beruniy siymosini yoritishda bevosita tasvir yo'lidan borsa, Ibn Sino obrazini yaratishda mistifikatsiya usulini qo'llab, Ubayd Jusjoniy xotiralaridan foydalanadi. Eng muhimi, adib bu ikki dahoni ham o'ylanadigan, izlanadigan, xatolar qiladigan, qiynaladigan jonli odamlar sifatida tasvirlay olgan. Shuning uchun ham bu timsollar kitobxonda donishmandlik, ezgulik ramzi emas, balki birinchi navbatda, mashaqqat bilan o'z yo'lini izlayotgan tirik shaxslar sifatida taassurot qoldiradi "ko'hna dunyo" adib ijodidagi alohida bosqich bo'ldi. G'aznaviyni birda qonxo'r va shafqatsiz shoh, birda mehribon inson, tadbirli siyosatchi sifatida ko'rsatar ekan, yozuvchi uning ruhiy olamini teran ochishga erishadi. Shuning uchun ham roman so'nggida Ibn Sino tilidan aytilgan: "Ibn Shahvoniy taqdiri azalning ajib jumbog'i. Bu jumboqni donolar ham yechishga ojizlik qilur"² –degan xulosa romanning pafosini ifodalaydi deyish mumkin.

Yozuvchi romanida asar g'oyasini yorqin aks ettiruvchi rivoyat va hikoyatlardan ustalik bilan foydalangan. Asardagi zolim shoh haqidagi rivoyat yoki yeti kunlik yomg'ir suvidan ichib tentak bo'lgan qavmini boshqarish maqsadida o'zi

¹ Odil Yoqubov. Ko'hna dunyo. –T.: Sharq, 2004.

² Odil Yoqubov. Ko'hna dunyo. –T.: Sharq, 2004.

ham jinnilik suvidan ichib, aqldan ozishga majbur bo'lgan podsho to'g'risidagi rivoyatlar ham asar mohiyatini ochish, ham syujet rivojini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Bunda yozuvchi, birinchidan, o'z davrida ochiq aytish mumkin bo'lmagan qarashlarni ifodalagan. Ikkinchidan, ochiq aytilsa, unchalik natija bermaydigan haqiqatlarni badiiy libos bilan ta'minlagan. Asardagi bu rivoyatlar orqali har bir xalq o'z hukmdoriga loyiq yoki har bir hukmdor o'z xalqiga yarashadir degan xulasa bildirilgan. Ayonlar tomonidan bildirilgan aqlsiz qush boshiga qo'ngani uchungina mutlaqo begona yurtdan kelib, podsho bo'lgan yigitning odamlarga zulm qilishi va bunday qilmaslikni so'ragan do'stiga: "Bir ahmoq qushga ishonib o'zini podsho qilib qo'ygan halqqa shunday muamola" qilish kerakligi"ni aytish tasvirida ulkan dard va achchiq haqiqat yotadi.

Romandagi podshoning ta'qiqlashiga qaramay qavmning yomg'ir suvidan ichib aqldan ozish va hukmdorning boshqarolmay qiynalishi, nihoyat, o'zi ham yomg'ir suvidan ichib teskari buyruqlar bera boshlagach, uning farmonlari xalqqa ma'qul kelgan to'g'risidagi rivoyat muallifning xalq va uning hukmdori munosabati borasida qarashlarini aks ettiribgina qolmay, xalq degan daxlsiz tushunchaga yozuvchining yangicha yondashuvini ham ifoda etadi. Sho'rolarning qudrati avj nuqtada bo'lgan bir zamonlarda har bir xalqning o'ziga yarasha hukmdorga ega bo'lajagini tasvirlash adibning o'ziga xos bir jasoratidir deyish mumkin.

II BOB. ADIB IJODIGA MANSUB ASARLARNI UMUMTA'LIM MAKTABLARDA O'RGATISH USULLARI

2.1. Umumta'lim maktablarining 6-sinflarida “Muzqaymoq” hikoyasini o'rgatish usullari.

Ijtimoiy hayotdagi yangilanish va o'zgarishlar adabiyotning o'zida ham, uni o'qitish sohasida ham yangicha yondashishni taqozo etmoqda. Keyingi yillarda adabiyot fanini o'qitish o'zining yangi metodlarini topib bormoqda. Bugun axborotlar oqimi shiddat bilan kuchayib borayotgan bir paytda kitob o'qishga, asar mohiyatini tushunishga, qahramonlar og'rig'i, quvonchi bilan yashashga, ma'naviy ozuqa olishga e'tibor susayib bormoqda. Shunday bo'lsa-da, kitobxonlarga kitob inson ma'naviyatning ajralmas qismi ekani, inson ma'naviyatining shakllanishida adabiyotning roli kattaligini singdirish lozim.

Innovatsion jarayon turli yangiliklar, innovatsiyalarni yaratilishi, tarqalishi, tatbiq etilishi, tanlanishi, o'zgartirilishi va ishlatilishidir. Darsda innovatsion faoliyat xususiyati jihatidan novatsiya ko'lami va vaqti bo'yicha chegaralangan, innovatsiya esa yaxlit va davomli bo'ladi. Novatsiya natijasida amaldagi tizimda alohida elementlar o'zgartiriladi, innovatsiya natijasida esa amaliyot subyektlarining pozitsiyalari to'la yangilanadi, tizimdagi aloqalar va tizim isloh qilinadi.

Alohida qayd etish lozimki, ayni vaqtda ta'lim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy-g'oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona fikr mavjud emas. Bo borada taniqli olim N. Talizina “Amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan tizim loyihasi”¹ deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi.

Zamonaviy innovatsion texnologiya, iloji boricha, o'quvchilarning tafakkurini faollashtirishga yo'naltirilgan. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarga mavzu ustida bevosita o'zlari mustaqil faoliyat ko'rsatishlari, mantiqiy fikrlashlari va ma'lum xulosalar chiqarishi uchun imkoniyat yaratsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umumta'lim maktablarining 6-sinf adabiyot fani dasturiga O. Yoqubovning “Muzqaymoq” hikoyasi kiritilgan va hikoyani o'rganish uchun uch soat ajratilgan.

¹ Талызина Н. Управление процессом усвоения знаний. Москва, МГУ, 1984, с.13.

Umumta'lim maktablarida badiiy asar o'rganilar ekan, uni ilmiy va didaktik tahlil etib, xulosalar chiqarishga urinishadi. Badiiy asar tahlilidan ilmiy xulosalar chiqarish uchun ijodkorning tarjimai holi bilan tanish bo'lish talab etiladi. Shundagina u yoki bu hayotiy hodisaga adib qanday munosabatda bo'lganligidan xabardor bo'lish mumkin.

Maktab adabiy ta'limida ijodkorlar umrbayoni ikki sababga ko'ra o'rganiladi. Birinchidan adiblar millat ahlining diqqat e'tiborida turgan kishilar ularning shaxsiy hayoti va tabiatida o'quvchilar uchun namuna bo'ladigan jihatlar ko'p. Ana shundan kelib chiqib, bir soat adib O. Yoqubov hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlanadi.

O'zbek xalqiga xos odamiylik, mehmondo'stlik, ochiqko'ngillik, haqparvarlik, milliy qadriyatlarni ulug'lash O. Yoqubov asarlarining asl mohiyatini tashkili qiladi. Bunday umuminsoniy qadriyatlar esa bugungi yosh avlod tarbiyasida alohida ahamiyatga ega. Shu sababli umumta'lim maktablari 6-sinf «Adabiyot» darsligiga yozuvchining "Muzqaymoq" hikoyasi kiritilgan bo'lib, dasturda uni o'rganishga uch soat ajratilgan. O'qituvchi mazkur hikoyaga bag'ishlangan dastlabki mashg'ulotda o'quvchilarni asar mazmuni, g'oyaviy-badiiy jihatlar bilan tanishtirsa, keyingi soatlarda hikoya matnini tahlil qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

XX asr mamlakatimiz hayotida ham fojialar, ham buyuk o'zgarishlar asridir. Xalqimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritguniga qadar ne-ne xo'rlik va qiynchiliklarni boshdan kechirdi. Millionlab asl insonlar arzimagan sabablar, tuhmat, adolatsizliklar tufayli tazyiqlarga uchragan, qamalgan va hatto otib, yo'q qilib yuborilgan davrlar boldi. Bir millat vakili bo'lib bir mahallada yonma-yon yashab, bir-biriga yov, dushmanga aylangan odamlar ham, afsuski, ko'p uchradi. Ana shunday jamiyat barpo etib kishilarni qo'rquvga, dahshatga solib turgan siyosat sho'rolar zamonida necha o'n yillar hukm surdi. Bu davr insoniyat tarixiga qatag'on davri bo'lib kirdi. Bu siyosat o'z haq-huquqini tanigan, ozodlik, erkinlikni istagan, pok, halol yashagan har bir ziyoli, har bir fuqaroga qarshi qaratilgan edi.

Adib Odil Yoqubov ham o'z otasi taqdiri misolida qatag'on davrining dahshatlari aks etgan bolalik xotiralarini qalamga oladi. Mehnatkash, halol sadoqatli

otasining o'z xizmatlari uchun tuhmatga uchrab, qatag'on qilingam voqealarini tasvirlaydi.

Bu hikoya Prezident I. A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" kitobida ta'kidlangan quyidagi da'vatning naqadar muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi: "Xalqimiz va millatimizning yaqin o'tmishidagi yopiq sahifalarni to'la ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarashni shakllantirish, begunoh qurbon bo'lgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farz"¹.

Bo'lajak yozuvchi ham o'n yashar chog'larida otasining qo'rquv va xavotir ichida yurgan kunlari guvohi bo'lgan. Otasi sho'ro idoralarida katta-katta lavozimlarda ishlagan, buvalari Yoqubshayx so'filik qilgani uchun o'gli urilib, tuman moliya bolimiga kichik bir vazifaga tushirib qo'yilgan. Qatag'on siyosati avjiga chiqayotgan pallalar. Barcha tahlikada, bir-biridan gumonsiragan davrlar. Ana shunday kunlarning birida ota hibsga olinadi. Yozuvchi mazkur manzarani tasvirlar ekan, bir tomonda dahshatdan haykalday qotib qolgan otasi, dod-faryod solib yiglayotgan opasi, burchakka tiqilishib, qo'rquvdan bir-birining pinjiga kirib olgan ukalari holatini ko'rsatib, qatag'on davrining naqadar qo'rqinchli bir hodisa ekanini o'quvchi tasavvurida akslantiradi.

Hikoyada yozuvchi go'yo yaqin do'st, qo'shni bolgan kishilarning dushmanga aylanishi, yaxshilik kutmagan odamlardan insoniy, samimiy munosabat ko'rganlarini tasvirlab, qaltis, sinovli holatlarda kishilarning asl mohiyati namoyon bolishini, kishining sirtiga qarab emas, qilgan ishi, og'ir vaziyatlarda o'zini qanday tuta olganligiga qarab baho berish lozimligini uqtiradi. Bu fikrlar xushsurat yigitcha - shahar komsomol qo'mitasi kotibining yozuvchi otasiga qamalguncha xushomad qilib yurib, musibatdan so'ng yovga aylanib, hatto bolani tahqirlashi, «Qashqirdan tug'ilgan qashqircha» deb haqoratlashi parchasida yoki yosh tatar o'qituvchining bolaga achinib, chekka-chekkada boshini silab, indamay hamdardlik bildirishi lavhalarida yaqqol aks etadi. Davr shunday yovuz ediki, hatto bolani otaga dushman qilib qo'yar edi. Sho'ro zamonida o'z otasini dushman sanab, qizil askarlarga tutib

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. –T. Ma'naviyat, 2008. –B.98.

bergan Pavlik Morozov degan bola qahramonga aylantirilib, barcha maktab o'quvchilariga ibrat qilib ko'rsatilardi. Ana shunday targ'ibot-tashviqotlar ta'sirida asl voqelikni tushunmay yurgan hikoya qahramoni tintuv chog'i o'z uyida kitob javoni qulfini ochib berib, o'zini Pavlik Morozov deb maqtaganlaridan g'ururlanadi. «Xalq dushmanlari» sifatida qancha-qancha begunoh yurtdoshlarini abgor qiladigan mitinglarga chorlovchi nog'ora gumburi-yu, karnay-surnay sadolariga mahliyo bo'lib, uni chalayotgan pionerlar ketidan ergashib boradi. Bu tasvirlar orqali yozuvchi inson ichki dunyosining naqadar murakkabligini, yolg'on aqidalar, g'oyalarga ishontirilgan odam o'z yaqinlarining dushmaniga aylanishi mumkinligini ta'kidlaydi. Uni ma'naviy tanazzulga olib boradigan holatlarni ko'rsatib beradi. Ayni chog'da o'g'liga muzqaymoq olib berolmay, armonda qolgan otaning haqsizlik, tuhmatlar tufayli naqadar ojiz, g'arib bir ahvolga tushishi, adolatsizlik hukm surgan jamiyatning qanchalar insonlar qalbini zada qilganini tasvirlash orqali yozuvchi mustaqillikning qadriga yetish, o'shanday yovuzliklar bo'lmasligi uchun kurashish, mehr-oqibat, adolat g'oyalari barqaror bo'lishiga erishish fikrini ilgari suradi. O'quvchilarni bu borada ibratli xulosalar chiqarishga undaydi.

Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasi

Darsning maqsadi:

- a) talimiy maqsad: "Muzqaymoq" hikoyasini o'quvchilarga o'rgatilayotganda, eng avvalo, o'quvchilarga qatag'on davrining dahshatli jihatlarini va buning oqibatlarini tushuntirib berib, shu davrning ayanchli qismati bilan hozirgi davrni solishtirib, ularda shukronalik ruhini uyg'otish.
- b) tarbiyaviy: o'quvchilarni adabiyot darslariga hurmat ruhida tarbiyalash.
- c) rivojlantiruvchi: o'quvchilarni erkin fikrlash qobiliyatini o'stirish.
- d) dars tipi: o'quvchilarga yangi bilim berish.

Dars metodi: suhbat.

Darsni jihozlash: darslik, tarqatmalar, har xil jadvallar, ko'rgazmali qurollar.

Darsda boshqa fanlardan foydalanish:

Ona tili va tarix fanlaridan foydalaniladi.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) sinfni darsga hozirligini tekshirish.
- d) davomatni aniqlash.

O‘tilgan mavzuni takrorlash:

1. Abdulla Qahhor qachon va qayerda tug‘ilgan?
2. Abdulla Qahhorning qanday hikoyalarini bilasiz?
3. ”Bemor” hikoyasiga qanday so‘zlar epigraf qilib olingan?
4. ”Bemor” hikoyasi orqali yozuvchi aks ettirgan hayot haqidagi nimalardan iborat?

Uyga vazifa tekshirish.

Yangi mavzu bayoni

Odil Yoqubov 1926-yil 20-oktyabrda hozirgi Janubiy Qozog‘iston viloyatiga qarashli Qarnoq qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘sha yerdagi maktabni tugallab, armiya xizmatiga ketgan. Keyin O‘rta Osiyo Davlat universitetining filologiya fakultetida o‘qiydi.

Yozuvchining dastlabki yirik asari 1951-yilda bosilib chiqqan ”tengdoshlar” povesti edi. So‘ngra uning ”Dastlabki qadam”, ”Ikki muhabbat” hikoyalari to‘plami, ”Tilla uzuk” qissa va hikoyalar to‘plamlari chop etiladi. ”Chin muhabbat”, ”Aytsam tilim, aytmasam dilim kuyadi”, ”Yurak yonmog‘i kerak”, ”Olma gullaganda” pyesalari yaratiladi.

Birin –ketin ”Bir fel’eton qissasi”, ”Muqaddas”, ”Qanot juft bo‘ladi”, ”Izlayman”, ”Billur qandillar” qissalari e‘lon qilinadi.

Odil Yoqubovning turli davrlarda yaratilgan ”Er boshiga ish tushsa”, ”Ulug‘bek xazinasi”, ”Ko‘hna dunyo”, ”Diyonat”, ”Oqqushlar, oppoq qushlar” romanlari kitobxonning mehrini qozongan.

”Muzqaymoq” hikoyasi o‘n yashar murg‘ak bolaning boshiga tushgan og‘ir kunlar haqida yozilgan. Hikoya qahramonlari Egamberdi Yoqubov, Gulshan, o‘n

yashar bola va uning ikkita opasi va pochchalari, qo'shnisi shahar komsomol qo'mitasining kotibi kabi obrazlarini aytish mumkin. Hikoya juda ta'sirli yozilgan va oxirida ayancli yakun topgan.

5.O'quvchilarni bilimlarini baholash.

6.Uyga vazifa berish.

7. Darsni yakunlash.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida tatbiq etishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunga sabab shuki, ko'p yillar an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar esa ularning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganib tahlil qilish hamda mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Maktab adabiy ta'limi jamiyat ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda eng ko'p ishtirok etadigan faoliyat turidir. O'quvchilarni adabiyotning sehirli olamiga olib kirish, ajdodlardan qolgan ma'naviy merosni kelajak davomchilariga yetkazish, ularni asrab-avaylashni, o'qiladigan asarlarning o'ziga xos tarovatini tushunishni shakllantirib borish zarur. Shu o'rinda, taniqli metodist olim Q. Yo'ldoshevning: "Adabiyot o'qitishning vazifasi qanchalik aniq, o'quvchining yosh va ruhiy xususiyatlariga mos bo'lsa, maqsadga erishish imkoniyati ham shunchalik yuqori bo'ladi"¹, degan fikrini ma'qul bildik.

Hozirda keng qo'llanayotgan innovatsion texnologiya-bu "Aqliy hujum".

"Aqliy hujum"—g'oyalarni generatsiya qilish usuli. Qatnashchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar, uni yechish uchun shaxsiy g'oyalarini ilgari suradilar.

Aqliy hujum-sinfdagi har bir o'quvchi oldiga o'qituvchi qo'ygan savol yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon etishga imkon beradi, ehtimol tutiladigan hamma fikrlar variantini bir yerga jamlay olishda bo'lib, to'g'ri bo'lmagan javoblar ham inobatga olinadi. Bu narsa bayon etilgan fikrlarning keyingi tahlilida

¹ Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. 1996, 127-bet.

o'quvchilarning qo'yilgan savol yoki muammoni to'g'ri tushunishlariga imkon beradi.

Qo'llanishi:

-savol, topshiriq yoki muammoni hal qilishda fikrlarni erkin aytishda;

-muammoni hal qilish qobiliyatini oshirishda;

-o'quvchilarning faolligini oshirishda;

-asardagi kirish va asosiy mohiyat va mazmunini bilib olishga yordam beradi.

Bu usulning asosiy vazifasi-muammoni mustaqil tushunish va yechishga ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini uyg'otish.

“Muzqaymoq” hikoyasini “Aqliy hujum” metodi orqali o'qitishda o'quvchilarga aqliy hujum qilinadi. Bu quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. “Muzqaymoq” hikoyasi nega shunday nomlangan?
2. Hikoyada Egamberdi obrazi nima uchun qamoqqa mahkum qilinadi?
3. Hikoyada qaysi davrning ayanchli qismati aks ettirilgan?
4. Hikoyaga Pavlik Morozov obrazini kiritish nima uchun kerak?
5. Egamberdining shogirdi bo'lgan kotib nima uchun u qamalgandan keyin o'zgardi?
6. Hikoyada qamoqxonaning tasviri qanday berilgan?
7. Nima uchun bir xonadondan bir kishi qamalsa, uning qarindoshlari va qo'ni qo'shnilari aloqani uzgan?
8. Asar qahramonlarini sanang.
9. Hikoya kimni tilidan bayon qilinadi?
10. Asardagi ijobiy qahramonlar kimlar?
11. Hikoyada kim qamoqqa olinadi?
12. Asardagi shahar komsomollar qo'mitasining kotibini qilgan ishlarini qanday oqlaysiz?
13. Asardagi Pavlik Morozov qismati nima uchun yoritilgan?
14. Hikoyadagi grafin singanda ota-onaning bolaga munosabatini qanday izohlaysiz?
15. Hikoya qanday yakunlangan?

16.Asardagi bunday achinarli holatlarga kim aybdor?

Savol berish ham - san'at. Jo'yali savol o'quvchilarni izlanishga, asar mutoalasiga chorlaydi. Odil Yoqubov "Muzqaymoq" asarini o'rganishga ajratilgan soatning oxirgi soatida "Rezyume" texnologiyasidan foydalanish mumkin.

Bu texnologiya asarni turli xil usullarda o'rganishning afzallik va kamchilik tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Badiiy asarni o'rganish bo'yicha "Rezyume" texnologiyasi

Mustaqil o'rganish		Jamoa bo'lib o'rganish		Kinofilm orqali o'rganish	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
-hech kim xalaqit bermaydi; - tushunmagan joyini qayta o'qish mumkin -yodda ko'p vaqt saqlanadi; -asardagi kishini larzaga soladigan yoki "yig'latadigan" o'rinlarini hazm	-o'z dunyoqarashi nuqtayi nazaridan tushunchaga ega bo'ladi -munozaraga kirisha olmaydi -ayrim so'zlarning (eskirgan) ma'nosini tushunmay, mag'zini chaqolmaydi.	Munozaraga qatnashadi; -noto'g'ri xulosa chiqargan bo'lsa, jamoa fikrini o'ylab ko'rishga fursat bo'ladi; -jamoa fikriga qo'shilsa, uni qo'llaydi; -tushunarsiz yoki hozirda istemoldan chiqqan so'zlar ma'nosini boshqalardan yoki o'qituvchilarda	-shovqin bo'lib ketadi; -har kim o'z fikrini olg'a surishga harakat qiladi; -yetarli darajada zavq olmaydi.	-vaqtdan yutiladi; -rangli tasvir ko'proq yodda qoladi; -qahramonlar harakati kuzatiladi; -adabiy qahramon aktyor qiyofasida yodda muhrlanib qoladi; -qayta	-asarning ayrim muhim joylarini qaytarish yoki o'qish mumkin bo'lmaydi; -obrazni "o'ynagan aktyor yoqmasligi mumkin (chunki o'qiganda xayolan obrazda gavdalanadi) -asar voqeligi

qilishga vaqt bo‘ladi; - savodxonlig i oshadi.		n eshitadi; -munozaraga qatnashadi; -noto‘g‘ri xulosa chiqargan bo‘lsa, jamoa fikrini o‘ylab ko‘rishga fursat bo‘ladi; -jamoa fikriga qo‘shilsa, uni qo‘llaydi; - tushunarsiz yoki hozirda istemoldan chiqqan so‘zlar ma’nosini boshqalardan yoki o‘qituvchilarda n eshitadi.		qayta ko‘rish mumkin.	qisqartirib olinadi; - asarning mohiyati yetarli tushunolma ydi; - savodxonlik ka e’tibor qilinmaydi.. .
---	--	--	--	-----------------------------	--

Har qanday asar tahlili undagi qahramonlar timsolini o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Inson va uni qurshab turgan olamdagi chigal munosabatlar, hayotiy ziddiyatlarni o‘quvchi kuzatib, bu hodisalarning jonli guvohiga aylanadi, har bir masalaga o‘z munosabatini bildirish imkoniga ega bo‘ladi.

Ta’lim samaradorligini oshirish, DTSning bajarilishini ta’minlash ta’limning sifat ko‘rsatkichini kafolatlashda zamonaviy innovatsion texnologiyalarning yordami juda katta.

2.2. "Ulug'bek xazinasi" romanini o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotining yirik vakili Odil Yoqubov ijodi namunasi bo'lmish "Ulug'bek xazinasi" romanini to'rt soat mobaynida o'rgatish ko'zda tutilgan.

Ijod mahsuli va ijodkor shaxsi munosabati borasida hisobga olinishi zarur bo'lgan bir jihat borki, usiz badiiy ijod tabiatini tushunish qiyin. Ijod mahsuli, ya'ni badiiy asar ijodkor shaxsidan yuqori bo'lishi mumkin emas. Chunki badiiy asar ijodkor tomonidan yaratiladi va shaxsiyatidagi eng kuchli jihatlar uning yaratig'ida namoyon bo'lishi kerak. Shu ma'noda, ijodkor va badiiy asar munosabatini og'och va uning mevasiga o'xshatish mumkin. Meva uni bergan og'ochdan ortiqroq bo'lishi mumkin bo'lmagani kabi badiiy asar ham uning muallifi darajasidan baiand bo'lolmaydi. Bu gapga urg'u berilayotganligining sababi shundaki, Odil Yoqubov shaxs sifatida butunligi bilan boshqa o'zbek adiblaridan ajralib turadi. Ayni jihat uning asarlarida ham aks etadi.

Adabiyot o'qituvchisi O. Yoqubov asarlaridagi aksar qahramonlarning g'oyat ta'sirchan, pokiza xulq kishilari ekaniga o'quvchilar e'tiborini tortishi va buning manbasi sifatida yozuvchi shaxsiyatini ko'rsatishi pedagogik maqsadga muvofiq bo'ladi. 1989-yilda sobiq tuzum davridagi siyosat o'z ta'sirini yo'qotmay turib, o'sha tuzum davridagi xalq deputatlari syezdida o'zbek xalqi boshiga tushgan adadsiz qiyinchiliklar haqida haq so'zni ta'sirli qilib dangal ayta olgan yagona kishi Odil Yoqubov bo'lgandi. Uning asarlaridagi Ulug'bek, Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiy, Beruniy, Malikul sharob, Ibn Sino, Normurod domla, Suyun Burgut singari e'tiqodidan qaytmas timsollar adib shaxsiyatidan suvlangandir.

Odil Yoqubovning ijodiy qiyofasi bolalar ko'z o'ngida to'g'ri gavdalanishi uchun o'qituvchi adibning ijodiy biografiyasiga batafsilroq to'xtalgani ma'qul. O. Yoqubov o'z ijodiy umri mobaynida hikoya, qissa, roman, drama, badiiy maqolachilik (publisistika) singari janrlarga mansub asarlar yozgan.

Yozuvchining hikoyachiligi o'quvchilarga oltinchi sinfda o'qiyotganlaridan beri tanish. Ular "Muzqaymoq" hikoyasini o'qib, uning ta'sirchan, sodda, baxtsiz

qahramoni bilan uchrashishgan. “Yaxshilik” hikoyasida yangasiga yaxshi ko‘rinmoqchi bo‘lgan o‘smirning iztiroblari mahorat bilan tasvir etilgan. Unda niyat bilan amal o‘rtasidagi nomuvofiqlikdan paydo bo‘lgan ruhiy po‘rtana jonli ko‘rsatilgan.

O. Yoqubov ijodida qissachilikdagi mahorati, roman janri rivojiga qo‘shgan hissasi haqida batafsil ma’lumotlar beriladi.

“Ulug‘bek xazinasini” romani O. Yoqubov ijodida ham, o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida ham muhim o‘rin tutgan asardir. Bu roman tasvirning shiddati, obrazlar ruhiyatidagi tug‘yonlarning qabariq tasvirlanganligi, timsollar tabiatining ishonarli ochilganligi bilan e’tiborga loyiqdir. Darslikda berilgan parcha to‘rt qismga bo‘lingan. O‘qituvchi hech bo‘lmasa a’lochi o‘quvchilarning faqat darslikdagi parchani emas, balki butun romanni to‘liq o‘qib chiqishlariga erishsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Negaki, olingan parcha asar haqida bir qadar tasavvur beradi, lekin uning badiiy tarovatini to‘liq ifoda eta olmaydi. Shuning uchun ham juda bo‘lmasa, bir qism o‘quvchilarning romanni o‘qib chiqishiga erishish kerak.

Asarda Ulug‘bek hayotining o‘ta qaltis bir davri qalamga olinib, ana shu sharoitda bosh qahramonning ruhiy qiyofasi ochiladi. Garchi, Ulug‘bek biz uchun asosan ulkan olim sifatida ma’lum bo‘lsa-da, romanda uning hukmdor, ota va erkak sifatidagi qirralari katta mahorat bilan aks ettirilgan. O‘ychil, fikrchan odamga yashash hamisha qiyin. Asarda Ulug‘bekning ayni shu qirralari teran tasvir etilgan. Atrofida ro‘y berayotgan har bir hodisa Ulug‘bek Mirzo ruhiyatida aks-sado beradi. Romanda qirq yil saltanat surgan hukmdorning qandaydir daqiqalar ichida hokimiyatdan mahrum bo‘lishi, butun ongli umrini o‘tkazgan, uni obod qilish uchun tinim bilmagan Mirzoning o‘z poytaxti bo‘lgan Samarqand shahriga kiritilmasligi uni ulkan iztiroblar girdobiga tashlagani chuqur badiiy tadqiq qilingan.

Yozuvchining mahorati ana shunday holatga tushgan, hadsiz iztiroblar qurshovida o‘rtanayotgan shaxsning tuyg‘ularini haqqoniy va ta’sirli aks ettirishda ko‘rinadi. Adib Ulug‘bek Mirzoni yengilmas va qo‘rqmas afsonaviy qahramon sifatida tasvirlaydi. U o‘quvchi ko‘z o‘ngida o‘z o‘g‘li tomonidan taxtdan tushirilgan, yaqinlari tomonidan tashlab ketilgan, o‘z mamlakatidan quvilgan, hatto joniga qasd

qilingan odam sifatida gavdalanadi. Asarda Ulug‘bekning haqoratlangan tuyg‘ulari, toptalgan ishonchi tufayli junbushga kelgan ruhiy tug‘yonlari butun haqqoniyligi bilan yaqqol namoyon bo‘lgan.

Asarda yaxshilikka yaxshilik bilan javob berishga odatlangan Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiy, Temur Samarqandiy timsollari ham o‘ziga xos va esda qolarli qilib tasvirlangan. Yozuvchining mahorati har bir obrazni o‘z tabiatiga monand xatti-harakat qildirib olishida namoyon bo‘ladi. Chunonchi, qilni qirq yoradigan olim osmon jismlari sirini biladigan mutafakkir, lekin odamlar munofiqligi darajasini bilmaydigan, oddiy shumliklarni qilolmaydigan Ali Qushchining xazinani eng oson topiladigan joyga berkitishida uning tabiatidagi to‘g‘rilik, quvlik-shumlikdan yiroqlik namoyon bo‘ladi. Qalandar Qarnoqiyning esa qiyinchiliklarda obdon toblangan, qora kuchlarning yovuzligiga tilasin kuch bilan, tilasin tadbir bilan qarshi tura oladigan, ammo ezgulikka ezgulik bilan javob berishga hamisha shay turgan jo‘mard yigitligi esdan chiqmaydigan qilib tasvirlanadi.

“Ulug‘bek xazinasi” romanida padarkush Abdullatif timsoli ham yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Odatda, badiiy asarlarda yomon xatti-harakatga qo‘l uradigan timsollar juda jirkanch, hech qanday yovuzlikdan tap tortmaydigan, odamlarga qanday bo‘lsa-da yomonlik qilishdan boshqa narsani o‘ylamaydigan qiyofada tasvir etiladi. Ammo O. Yoqubov boshqacha yo‘l tutadi. U Abdullatifni ham el qatori bir odam, bir qator fazilatlarga ega yigit, qo‘ygan qadamining to‘g‘ri-noto‘g‘riligini o‘ylayverib qiynalib ketgan hukmdor sifatida tasvirlaydi. U yomonlik qilib zavqlanganidan yirtqich emas, balki o‘zi tushib qolgan, ehtimol, o‘zi tayyorlagan chigal vaziyatning quli, nopok niyatlarning ham ijodkori va ham qurboni sifatida tasvirlangan. Badiiy timsolga bunday yondashuv o‘quvchilarni hayot serqirraligini, tiriklikning biryoqlama emasligini tushunishga olib keladi. Bu hol o‘quvchi shaxsi-ning kamolotiga xizmat qiladi.

Roman matnini o‘rganish shunday tashkil etilishi kerakki, natijada o‘quvchilar badiiy asarda ruhiyat tahlili degan nazariy ma’lumotning asosiy qismini asar tahlili asnosida o‘zlashtirib olishlari mumkin bo‘lsin. Shunda nazariy tushuncha amaliy ko‘nikmalar yordamida hosil qilingan bo‘ladi va o‘quvchi xotirasiga mustahkam

o‘rnamashadi. Bizningcha, adib hayoti va ijodi hamda romanni o‘qib tahlil etishga bag‘ishlangan darslarning samaradorligini ta‘minlash uchun birinchi soatda o‘tiladigan darsning maqsadlarini tubandagicha belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

tarbiyaviy maqsad

- yozuvchining hayot va ijod yo‘li asosida o‘quvchilarda jasoratli va ma‘rifatli odamlarga havas tuyg‘usini shakllantirish;

ta‘limiy maqsad

- o‘spirinlarni Odil Yoqubov shaxsiyatiga doir malumotlar bilan tanishtirish;

rivojlantiruvchi maqsad

- o‘spirinlarda qaltis vaziyatlarda ham o‘zini yo‘qotmaydigan, boshqalar oldida xijolat qilib qo‘ymaydigan qarorlar qabul qila bilish sifatlarini tarkib topdirish.

Quyida O. Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanini 9-sinf adabiyot darslarida o‘rgatish yuzasidan bir soatlik dars ishlanmasi.

Darsning maqsadi: Odil Yoqubov ijodi “Ulug‘bek xazinasi” romani xususida o‘quvchilarda bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.

1. Tarbiyaviy maqsad: Ushbu roman orqali hayotda ota va o‘g‘il munosabatlari, farzandlik burchi xususida bolalarda tasavvur uyg‘otish.

2. Ta‘limiy maqsad: Badiiy asarda ruhiyat tahlilini shakllantirish

3. Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilarning tafakkur olamini boyitish, asardan chiqarilgan xulosani hayotga tatbiq qilishga o‘rgatish

4. Kasbiy maqsad: Dars davomida o‘quvchilarni o‘qituvchilik kasbiga qiziqtirish va muhabbat uyg‘otish

Dars metodi: Munozarali bahs. Asar qahramonlari xarakter, asar syujeti asosida munozarali muhit yaratish

Dars usuli: Suhbat va savol-javob

Dars turi: Aralash.

Dars jihozi : 9-sinf darsligi. Odil Yoqubov hayoti va faoliyati bo‘yicha fotosuratlar yaratgan roman va dramatik asarlaridan namunalar, tarqatmalar, slaydlar, texnik vositalar.

Darsning borishi

Tashkiliy qism

a) salomlashish

b) davomatni aniqlash

d) uyga berilgan vazifani tekshirish

e) o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

1) roman janri qachon paydo bo‘lgan ?

2) “Qutlug‘ qon” romanining g‘oyaviy badiiy mazmuni qanday

3) Oybek faoliyatini gapiring”

4) Mirzakarimboy shaxsiyati haqida?

Asosiy qism:

a) Yangi mavzu bayoni

Qozog‘iston viloyatining Turkiston shahri yaqinidagi Qarnoq qishlog‘ida dunyoga kelgan, bir qator asarlari bilan nafaqat o‘zbek kitobxonlari, qolaversa dunyo nazariga tushgan ajoyib yozuvchimiz Odil Yoqubovdir. Odil Yoqubovning ilk asari “Tengdoshlar” qissasidir. Dramatik asarlari: “Aytsam tilim kuyadi, Aytmasam dilim”, “Olma gullaganda”, “Yurak yonmog‘i kerak”, “Chin muhabbat”. Romanlari: “Er boshiga ish tushsa”. “Ulug‘bek xazinasi”, “Diyonat”, “Ko‘hna dunyo”, “Oq qushlar, oppoq qushlar”.

Qissalari: “Billur qandillar”, “Muqaddas”, “Bir fel’eton qissasi”, “Tilla uzuk”, “Qanot juft bo‘ladi”, “Izlayman”, “Larza” kabi bir qator nasriy asarlar muallifidir. Roman (fransuzcha –bayon qilish) inson hayotini muayyan badiiy makon va zamonda butun murakkabligi bilan, jamiyat va tabiat bilan aloqadorlikda har tomonlama to‘liq tasvirlashga ko‘p planli syujetga ega bo‘lgan epik asar.

Roman janri markazida inson obrazi turadi. Bosh qahramon taqdiri, uning jamiyatda tutgan mavqei bilan har doim ham mutanosib bo‘lavermaydi. O‘zbek adabiyotida realistik romanchilik maktabiga asos solgan adib Abdulla Qodiriydir. Keyinchalik S.Ayniy, Cho‘lpon, A.Qahhor, Oybek kabi adiblar romanning janr sifatida to‘la shakllanishini ta’minlaganlar.

Mavzu yoʻnalishiga koʻra romanlar tarixiy, falsafiy, siyosiy, maishiy, biografik, fantastik, detektiv kabi xillarga boʻlinadi Odil Yoqubovning "Ulugʻbek xazinasini" mavzu yoʻnalishiga koʻra tarixiy roman hisoblanadi.

Tarixiy romanning yetuk koʻrinishi hisoblangan "Ulugʻbek xazinasini" asari Temuriylar davrida, xususan Mirzo Ulugʻbek davri, hayoti, jamiyatdagi adolatsizliklar, koʻngilsizliklar badiiy yoʻsinda gʻoyat mahorat bilan tasvirlangan. Asarda ilm rahnamolari sifatida Mirzo Ulugʻbek, Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiylar tilga olinsa, bevosita tarix uchun hech narsadan voz kechmaydigan, mamlakat taqdiri bilan umuman qiziqmaydigan personajlar sifatida Abdullatif, Xoja Salohiddin zargar, Mironshoh, Sultonjon kabilarni aytib oʻtish mumkin. Asarda hech bir ish jazosiz qolmasligi va ota qotili "padarkush" taqdiri ham yoritib berilgan. "Padarkush" Abdullatif Mirzoning Nizomiy Ganjaviy kitobidagi taqdiri: "Padarkush", toju taxt olti oy..." aynan asarning tarbiyaviy, taʼlimiy qimmatini oshirgan. Ruhiyat tahlili ham asarda juda mohirona tasvirlangan. Yozuvchi oʻtmishda nima boʻlganini aytibgina qolmaydi, balki oʻtmishdagi yovuzlikni sodir etganlar yoki undan jabr koʻrganlar qanday sezimlarni kechirganliklarini, qanday ruhiy holatga tushganliklarini ham ishonarli qilib koʻrsatib beradi. Asarda voqealar eskirgan, lekin qahramonlarning ruhiy holatlari hech qachon eskirmaydi. Ularning haqqoniy tasviri barcha davrlarda kishilarga taʼsir qilaveradi. Shuning uchun ham, bu roman hech qachon adabiyot marvaridlari qatoridan tushmaydi.

b) Darsni mustahkamlash:

1. Mirzo Ulugʻbek va Abdullatif munosabatlarini qanday baholaysiz?
2. Mirzo Ulugʻbekka xiyonat qilganlar kimlar edi.
3. Nizomiy Ganjaviy kitobidagi taqdir bashoratiga munosabatingiz
4. Ali Qushchi obrazini qanday talqin qilasiz?
5. Mirzo Ulugʻbek ilmiy faoliyatidan qanday maʼlumotlarga egasiz?
6. Abdullatif ruhiyatidagi tiyiqsiz oʻzgarishlarga tayanib, inson tuygʻularining omonatligi toʻgʻrisida toʻxtaling?
7. Oʻzbek adabiyotida yana shu mavzuda kimlar qalam tebratgan?

8.Asardan olgan xulosangiz qanday, asar syujeti, g'oyasiga munosabatingizni bildiring?

Uyga vazifa: "Ulug'bek xazinasini" romanining to'liq matni bilan tanishish va asardan chiqarilgan xulosalarni yozma insho tarzida bayon qilib kelish.

O'quvchilar bilimni baholash.

Darsni yakunlash.

Mazkur mavzuning bir soati romandagi timsollarga tavsif berishga ajratilgan bo'lib, bunda o'qituvchi muammoli usuldan foydalansa bo'ladi. Badiiy asar timsollarini muammoli tahlil qilish orqali o'quvchi shaxsiy nuqtayi nazarini shakllantirish ta'lim jarayonidagi davr talablaridan biridir.

Badiiy asarlar qaysi janrda bo'lmasin, eng avvalo, ular inson ruhiyatining turfa manzaralari, murakkab hayot in'ikosidir. Ulardagi badiiy timsollar ijodkor g'oyaviy-badiiy niyatining ifodasi, elchisi, hayotning yozuvchi his-tuyg'ulari bilan qayta sug'orilgan va ruhiy kechinmalari singdirilgan shaklidir. Turmushda har bir inson o'z qiyofasi, o'z dunyoqarashi hamda o'zgalardan farq qiluvchi va faqat o'zigagina xos shaxsiy fazilatlarga ega bo'lganidek, biz o'qigan badiiy kitoblardagi timsollar ham rang-barangdir. Adibning tuyg'ulari nechog'liq kuchli, hayajonli bo'lsa, u yaratgan timsollar ham shu qadar jozibali, sehrlovchi qudratga ega bo'ladi. Ularni o'qib, qahramonlarining hissiyotlarini, qalb tuyg'ularini o'zimizga "yuqtiramiz", ular singari iztirobga tushamiz, nimanidir yoqlaymiz yoki, aksincha, inkor qilamiz.

O'qituvchi-murabbiylarimiz uzoq vaqt sho'ro davri pedagogikasi mezonlari bo'yicha badiiy asar timsollarini adabiyot saboqlarida ijobiy va salbiy guruhlariga bo'lib, bir yoqlama tahlil qilib keldilar. Asar timsollarini qaysi sinfnin vakili ekanligi hamda o'zida qanday g'oyani ifodalashiga qarab tahlil qilishga odatlangandik. Oqibatda, o'rganilayotgan badiiy asarning "shirasi", haqiqiy jozibasi, sehr-u sinoati "g'ubor bosib" qolgan, qahramon esa tirik inson sifatidagi o'ziga xos xislatlardan mahrum bo'lgani holda yozuvchi yoki o'qituvchi "kashf" etgan tayyor andozalar, bir xildagi qoliplar, go'yo "xamirturush" kabi mulohazalar bilan cheklandik.

Bugungi kunda esa yuqoridagi kabi tahlil va tamoyillar eskirdi. Asar qahramonlarining ruhiyati, zohiriy va botiniy xislatlari, oddiy tirik inson sifatidagi kamchilik va nuqsonlari — butun qaddi-basti uyg'un holda keng tahlil qilinadigan bo'ldi. Taniqli olim, pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, “to'liq rejaga (qolipga) tushgan faoliyat ijod bo'la olmaydi, hayotdagi odamlarni jo'ngina, shunchaki yaxshi va yomon guruhlariga ajratish noto'g'ri bo'lganidek, badiiy timsollarni ham ijobiy yoki salbiyga ajratish to'g'ri emas, aksincha, inson g'oyat murakkab, hayotdagidek serqirra mavjudot bo'lib, uning tabiatidagi son-sanoqsiz qirralari, cheksiz tovlanishlari butun murakkabligi bilan atroflicha tahlil qilinishi...” maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, asar timsollarining eng maqbul tahlili ustoz va shogird uchun ham muammoli tahlildir. Bu usulda o'quvchilar asar matniga erkin yondashadilar, har bir timsol ruhiyatiga, yurak qatlamlariga chuqur kirib boradilar, ezgu xatti-harakatlariga ham, nojoiz-noaxloqiy, salbiy xislatlarga ham aslo befarq bo'la olmaydilar. Ularni yo ma'qullaydilar, yoki inkor etadilar.

Badiiy asar qahramonlarini o'rganish jarayonida (asari matni o'zlashtirilgandan so'ng) o'quvchilarga ularning o'ziga ma'qul yoki nojoiz jihatlarini, yoki qiyofa-portret tasvirlarini qisqacha konspekt daftarlariga yozdirgan ma'qul. Bu ish o'quvchilarga kelgusi darslarda yozilajak insholari, test topshiriqlarini bajarishlari uchun asqotadi. Muhimi, tahlilda loqaydlik, erinchoqlik qilmaslik zarur. O'quvchi asar mazmunidan to'la-to'kis xabardor bo'lmasa, uni mustaqil ijodiy tahlil qilishi amrimahol. Hayot mantig'i qayerda-yu, badiiy mantiq qayerdaligini idrok eta olmaydilar. Agar o'qituvchi 45 daqiqalik ish faoliyatini unumli, to'g'ri va oqilona, tejamkorlik bilan uyushtira olsa, qahramonlar tahliliga ham, bahs-munozaraga ham, yakuniy xulosalarga ham imkon topa oladi. Vaqt bemalol bo'lgan chog'da, fakultativlarda o'quvchi o'z tengdosh-sinfdoshlari va ustozlari bilan ochiqchasiga, emin-erkin bahs-munozaraga kirisha oladi. Bunday paytda ancha ilgariroq o'rganilgan bir necha asarning yetakchi timsollari tahlilida muammoli vaziyatlar muhitini yaratish mumkin. Asar qahramonlariga darddosh bo'la turib, eng bebaho boyligimiz — istiqlol va o'zbek xotin-qizlarining bugungi baxtiyor oilaviy turmushi, ertangi

yorug' kunlarini o'ylab, rahiyatimiz ham taskin topadi. Dorilomon shu kunlarga yetkazgani uchun yosh qalbimiz yashash-yaratish, sevib-sevilishdek bir-biridan shirin, masrur tuyg'ularga oshufta bo'ladi.

Shunday qilib, yuqorida qayd etilgan romanning yetakchi timsollari tahlili jarayonida o'quvchilarning har bir qahramon taqdiriga qiziqishi, mustaqil ravishda tahlilga, nuqtayi nazarlarini bildirishga ehtiyoj sezishi, ijodkorlikka intilishi orta boradi. Shuningdek, ular badiiy asar timsollarini keng qamrovli tahlil qilishga, mushohada yuritishga, shaxsiy fikrlarini asoslay olishga odatlana boradilar. Buning uchun qo'shimcha badiiy va ilmiy adabiyotlardan foydalanishga intiladilar. Mustaqil tahlilga moyillik esa asarlardagi eng nozik va mayda holatlarni, kichik epizodlarni ham bexato ilg'ab, eslab qolishlariga, kelgusida yosh munaqqid kabi u yoki bu kitob haqida o'zgalarga shaxsiy mulohazalarini mahorat bilan ifodalab berishlariga omil bo'ladi.

Muammoli tahlil usulidan badiiy asar g'oyasi, obrazlari to'g'risida fikr yuritish, qiyoslash, nazariy ma'lumotlarni o'rganish jarayonida foydalanish mumkin. Muammoli ta'lim natijasida o'quv materiallarining ta'lim oluvchi xotirasiga yaxshi joylashishi va uning mustaqil mushohada doirasi kengayishi darajasi birmuncha yuqori bo'lishi kuzatiladi. Va hattoki inson hayotda shu kabi murakkab vaziyatlarga tushib qolganida, turmush chorrahalarida adashganida yo'l topib, chiqib ketishga o'rganadi, malakasi oshadi, obrazlar xatti-harakatidan axloqiy-tarbiyaviy xulosa chiqarishga odatlanadi. Chunki badiiy asar faqat adabiyot fanining obyeksi emas, u butun insoniyatning tarbiya quroli, boyligi hamdir.

Keyinchalik adabiyot bilan fan sifatida shug'ullanmaydigan odam ham badiiy asar o'qishi, turli taqdirlarga hamnafas tutinishi mumkin. Chunki badiiy adabiyot ommaboplik xususiyatiga ega. Shuningdek, u insonshunoslik, pedagogik tarbiya asosi hamdir.

Dars jarayonida tanlangan muammo hajmi, qamrov doirasi yoki, umuman, mohiyatidan qat'iy nazar mavzuning yoritilishiga xizmat qilmog'i kerak. Chunki muammoli vaziyat natijasida fikrlar chuvalashib, chigallashib, hattoki mavzudan chetga chiqish holatlari yuzaga kelishi mumkin. O'qituvchi jamoa fikrini to'g'ri

tomonga yo‘naltirib yuborish uchun ko‘maklashishi, albatta, bunda o‘z fikrini ta’kidlash yo‘li bilan emas, balki savollarni chigallashtirib, o‘zgartirib, masalaning yangi qirralarining ochilishiga yordam beruvchi qo‘shimcha muammoli savollarni o‘rtaga tashlash orqali erishishi mumkin. Bu, albatta, ta’lim beruvchidan kattagina mahorat, izlanuvchanlik va ijodiylikni talab qiladi. Masalani 9-sinf adabiyot darslarida o‘rgatilishi ko‘zda tutilgan “Ulug‘bek xazinasini” romani misolida quyidagicha hal etish mumkin.

Sinf o‘quvchilari ikkita guruhga ajraladi. Guruhlar o‘zlariga nom tanlashadi. Darsda mavzuni yoritishda guruhlar uchta shartni bajaradilar. Birinchi topshiriqda har bir guruh o‘zbek adabiyotining yetakchi yozuvchisi Odil Yoqubov haqida ma’lumot beradi.

Ikkinchi topshiriqda “Ulug‘bek xazinasini” romani qahramonlarini ijobiy va salbiy kabi guruhlariga ajratadilar va ushbu obrazlar haqida ma’lumot beradilar.

Uchinchi shartda har ikkala guruh qatnashchilari asardan berilgan parchadan foydalanib, sahna ko‘rinishini ijro etadilar va xulosalar chiqaradilar.

Ushbu topshiriqlarni bajarish jarayonida guruh a’zolarining faollik darajasiga qarab ularni rag‘bat yoki jarima kartochkalari bilan baholab boriladi. Dars oxirida ushbu natijalar hisoblanib, g‘olib guruh e’lon qilinadi.

Birinchi guruh ya’ni “Ma’rifatchilar” guruhi “Ulug‘bek xazinasini” romanidagi qahramonlarni tarixiy va to‘qima obrazlarga ajratadilar:

Tarixiy obrazlar: Mirzo Ulug‘bek, Abdulaziz, Abdulmo‘min, Ali Qushchi, Abdullatif.

To‘qima obrazlar: Piri Zindoniy (Qalandar Qarnoqiy).

Ikkinchi guruh ya’ni “Munajjimlar” guruhi esa o‘sha romandagi obrazlarni ijobiy va salbiy qahramonlarga ajratadilar:

Ijobiy obrazlar: Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Amir Burhoniddin.

Salbiy obrazlar: Abdullatif, Amir Jondor.

Har bir guruh a’zolari kartochkadagi ma’lumotlar yuzasidan chiqish tayyorlaydilar. Bu chiqish shunday tarkibiy tuzilmaga ega bo‘lishi kerakki, boshqa o‘quvchilar undan yangilik ola bilsin va uni o‘zlashtirsin. Buning uchun o‘qituvchi

savol-topshiriqlar ko‘magida o‘quvchilarni timsolning asardagi o‘rni va mohiyati, xarakter xususiyati yuzasidan fikrlashga yo‘naltirib turadi. Shu tarzda o‘quvchilar har bir guruh chiqishidan so‘ng timsollar haqidagi boshqa qo‘shimcha ma’lumotlarni ham bilib oladilar.

O‘qituvchi doskaga yozilgan fikrlarga yana qo‘shimchalar qilish mumkinligini aytadi. Dastlab har bir guruh a’zolari o‘zlari yozgan fikrlar (klasteri)iga, o‘z qo‘shimchalarini kiritadilar. So‘ngra o‘qituvchi birma-bir, har bir timsol yuzasidan doskada yozilgan fikrlarga to‘xtalib, qo‘shimchalar qiladi.

“KLAUSTER” USULI



O‘qituvchi o‘quvchilarning diqqatini har bir timsolga alohida qaratib, shu timsol haqidagi xulosalarni umumlashtiradi.

O‘quvchilar guruhdagi fikrlarni to‘ldirishdagi ishtirokiga, yakuniy savol-javobdagi faolligiga qarab baholanadi.

Uyga vazifa sifatida guruh a’zolari o‘zlari ishlagan timsol bo‘yicha “Sinkveyn” tuzish topshiriladi.

Bunda tarqatma materiallar asosida o'zlashtirilgan fikrlar bo'yicha o'quvchilar tegishli timsollarga sinkveyn tuzadilar.

- mavzu, ya'ni timsol nomi;

- 2 ta fe'l, ya'ni shu timsol faoliyatini yorituvchi fe'l-

- so'z yoziladi;

- 3 ta sifat, ya'ni shu timsolga xos sifatlar yoziladi; bir jumla, ya'ni shu timsol haqidagi umumiy bir fikrni ifodalaydigan gap yoziladi.

Shundan keyin, asar mazmuni asosida kichik sahna ko'rinishi o'quvchilar tomonidan namoyish qilinadi. Zero, mashhur Xitoy faylasufi Konfutsiy aytganidek: "Aytsang unutam, ko'rsatsang eslab qolaman, o'zim bajarib bilib olaman", shioriga amal qilgan holda dars olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida o'sha sahna ko'rinishining senariysini keltiramiz:

Boshlovchi:

Mirzo Ulug'bek qirmizi poyandoz to'shalgan xiyobondan ohista yurib orqaga qaytarkan, darvozaning yonida oq ko'pikka cho'milgan bir necha otlarni ko'rdi. Koshonadan chiqqan shahzoda Abdulaziz bilan qo'lida maktub ushlagan shayxulislom Burhoniddin shosha-pisha unga tomon yurishdi.

Burhoniddin:

-Qayda yuribsiz, hazratim? –Amir Iskandar barlosdan chopar kelibdur.

Mirzo Ulug'bek:

-Tag'in ne mujda?

Boshlovchi:

-Mirzo Ulug'bek to'xtab nomaga qo'l cho'zdi.

Burhoniddinga Mirzo Ulug'bek:

-Shahzoda lashkari yurish boshlabdur. Lashkarlarida fillar bor emish.

Burhoniddin:

-Davlatpanoh ne farmon bergaysiz?

Mirzo Ulug'bek:

-Ollo taolo peshonaga neni yozgan bo'lsa, shu bo'lar, taqsir.

Burhoniddin:

-Inshoolloh, heshonangiz yorug‘ bo‘lg‘ay. Vaillo...

Mirzo Ulug‘bek:

-Jang –jadal qilmoq!...

Burhoniddin:

-Dorussaltanaga qaytmoq darkor, onhazratim! Qal’a mustahkam...

Mirzo Ulug‘bek:

-Hayot! –Shahzoda tosh otg‘uvchi arrodalar bordur, taqsir! Butkul shahar zer zabar bo‘ladi! Butkul shahar!

Amir Burhoniddin:

-Vallohi a’lam bissavob! Va lekin shaharni ololmas, sultonim! Jamiki masjidlarda xutba o‘qiturmen.

Barcha fuqaro oyoqqa turadur, davlatpanoh!...

Mirzo Ulug‘bek:

-O‘ylab ko‘rmoqdarkor, taqsir!

Boshlovchi:

-Mirzo Ulug‘bek qovog‘ini uyganicha koshona tomon yurdi. Bobo Husayn yo‘llagan nomani o‘qirkan, xayoliga bir fikr keldi: dorussaltanaga qaytib va uning darvozalarini berkitib olib, shahzoda bilan sulh-saloh tuzsa ne qiladi: Yo‘q, shahzoda uning taxtda qolishiga ko‘nmas.

Lekin Mirzo Ulug‘bekga minba’d toj’-u taxt kerak emas! Shahzoda uning rasadxonasi-yu madrasasiga tegmasa, ma’rifat yo‘lidagi ishlarini man etmasa, u tinchgina ilm-u idrok bilan mashg‘ul bo‘lsa-bas! Unga shunday boshqa ne kerak?

Lekin shahzodani bu shartlarga ko‘ndirish uchun fuqaroni safarbar qilib bo‘lsa ham, mudofaaga o‘tmoq darkor.

Mirzo Ulug‘bek:

-Siz Damashqda qolib, Iskandar barsos suvoriylariga ko‘mak bergaysiz, amir! Boshingiz ketsa-da, shu bugun shahzoda lashkarlarini to‘xtatgaysiz Farmoni oliy ayonmi?

Amir

-Ayon davlatpanoh!

Mirzo Ulugʻbek:

-Sen ikki shahzodani olib, darhol dorussaltanaga chopqaysen. Dorugʻa Mironshohga amri oliyni yetkazgaysen: barcha aʻyon-u boyonlar darhol Koʻksaroyga yigʻilsin. Mashvarat qilurmen.

Keyin ikkinchi guruh yaʼni “Munajjimlar” guruhi “Mirzo Ulugʻbek” romanidagi Ulugʻbekka darvozalarning ochilmasligi voqealarini sahnalashtiradilar.

Qorongʻu tusha boshlaganidan bezovtalangan Mirzo Ulugʻbek otiga qamchi urdi. Shu payt oldinda, allaqanday gʻalayon koʻtarildi, ilgarilab ketgan navkarlarning qattiq-qattiq tovushlari eshitildi. Soʻng bir guruh suvoriylar ot choptirib kelib, Mirzo Ulugʻbekka yetmay toʻxtadi.

Mirzo Ulugʻbek qilichini qinidan sugʻurib oldi.

Mirzo Ulugʻbek:

-Bu kim?

Saroybon:

-Aʻlohazratlari afv etsinlar! Biz dorussaltanatga borib qaytdik!..

Ketma-ket ot choptirib kelgan shahzoda Abdulaziz bilan tund yuzli saroybon armugʻonini niqtab oldinga oʻtdi.

Saroybon:

-Davlatpanoh

Mirzo Ulugʻbek:

-Soʻzla!

Saroybon:

-Darvozalar yopilgan. Salohdorlar darvozalarni ochmoqdin bosh tortadur, hazratim...

Mirzo Ulugʻbek:

-Yolgʻon!

Saroybon:

“Yo parvardigor!...”

Mirzo Ulugʻbek:

-Dorugʻa Mironshoh qayda? Darvozada bormu?

Saroybon:

-Yo‘q, onhazratim! Dorug‘a darvozaga kelmoqdin bosh tortibdi.

Mirzo Ulug‘bek:

-Bo‘shat yo‘lni!

Mirzo Ulug‘bek shunday deb baqirdi-da, betoqat pishqirgan oq bedoviga qamchi bosdi. Achchiq qamchiga o‘rganmagan arabiy arg‘umoq osmonga sakradi-yu, shamolday uchib ketdi...

Suvi ko‘klamdayoq qurib chuqur xandaq yonida Mirzo Ulug‘bekni yana bir guruh navkarlar qarshi oldi. Ular orasida shahzoda Abdulaziz bilan jiyanlari Abdulla va Abu Said Mirzo ham bor edi. Uchala shahzoda ham asabiy holatda u yoqdan-bu yoqqa ot o‘ynatib yurishar edi. Mirzo Ulug‘bek shahzodalarga e‘tibor bermay chuqur xandaqdan ot choptirib o‘tib, do‘nglikdagi darvoza oldida to‘xtadi.

Qilichi bilan darvozani “shaq-shaq” urgan edi, tepadagi minoradan:

Darvozabon:

-Bu kim?

Mirzo Ulug‘bek:

-Bu men! –Sohibi toj Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragoniy

Darvozabon:

-“Darvozai ohanin” namozi asrdan so‘ng shoh-u gado-barchasiga yopiqdur!

Mirzo Ulug‘bek:

-Och darvozani, mal‘un!

Darvozabon:

-Alo hazratlari afv etsinlar! –dedi boyagi

-Dorug‘a Mironshoh janoblari farmon qilmishlar, darvoza ochilmaydur!

Mirzo Ulug‘bek:

-Sohibi saltanat men bo‘lurmen. Barcha farmonlarim amri vojib erur!...

Darvozani och yo dorug‘ani chaqir, yoxud boshing ketadi, salohdor!

Sulton Jondor:

-Salohdorning boshini olishga qo‘ling kaltalik qiladur!

Buning boshi emas, o‘z boshingga ehtiyot bo‘lg‘il, Muhammad Tarag‘ay!

Mirzo Ulug‘bek:

-Voajabo! Bu mal‘un lashkarni tashlab qochganda...dorussaltanatga kelgan ekan-da! Lekin qachon, qaysi yo‘ldan o‘tib keldi? Unga darvozani kim, nechun ochdi?... Bu beimon kazzoblar qachon til biriktirgan? Bu diyonatsiz insonlar, bu amir-u umarolar, arkoni harb va arkoni davlatlardan hazar, alhazar! Qayga bormang, hammayoqda makkorlik, razolat va riyokorlik!

-Amir sulton Jondor! Humo qushi kimning boshiga qo‘nur, buni yog‘iz haq taolo biladur. Humo qushi meni tark etsa-sening baxting! Va lekin falakning, gardishi bilan, toj-u taxt qo‘limda qolsa... esingda bo‘lsin: oyog‘ingdan dorga osib, ostindan o‘t qo‘yamen!

U Mirzo Abdullatifga bosh egishga, yaxshilik bo‘lsa-da, yomonlik bo‘lsa-da, o‘z zurriyotidan ko‘rishga ahd qildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O. Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” asari matni tahliliga o‘quvchilarning o‘zlari shu tariqa yakka va hamkorlikda ishlash orqali kirishsalar, to‘la tasavvurga ega bo‘ladilar.

Demakki, o‘qituvchi o‘quvchilarga muammo tanlashda, u hattoki asarning eng elementar bir qirrasini yoki obrazi bo‘lsa-da, asosiy mazmunni ochishga qaratilgan bo‘lishi va o‘quvchilarni aniq maqsadning yechimi tomon yetaklovchi mohiyat sari yo‘naltirishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati mamlakatlari qatoridan munosib o‘rin egallashi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etishi, xalqaro munosabatlarni tashkil etishda demokratik va insonparvarlik tamoyillarining ustuvor bo‘lishiga erishishi qat’iy ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, muayyan soha bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni puxta o‘zlashtirgan, kasbiy faoliyatida yutuqlarga erisha oladigan yangi kadrlarning tayyorlanishiga bog‘liq. Shu ma’noda o‘quvchi-yoshlarga ta’lim jarayonida ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy meros mazmunini, shu jumladan, adabiyotimizdagi yaratilgan asarlardagi g‘oyalarni zamonaviy ta’lim usullari orqali to‘laroq singdirish, ularda ham buyuk adiblar o‘z qahramonlari siymosida ifodalagan ibratli xususiyatlarni shakllantirish, jamiyatimiz

taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ijtimoiy faol hamda mustaqil fikrga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mavzuga ajratilgan soatlarning oxirgi soatida badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili tushunchasi "Ulug'bek xazinasini" romani misolida tushuntirib beriladi.

Ma'lumki, ruh o'ta murakkab tushuncha. Uni sezgi muchalarining birortasi bilan his qilish mumkin emas. Ruhiyatga daxldor narsalarni ko'ngil bilan tuyish mumkin xolos. Demak, ruh odamning ko'ngliga tegishli narsa ekan. Inson aqli ruhni to'la tushunishga ojizlik qiladi. Qur'oni Karimda ham ruhning izohini odam tushunolmasligi ta'kidlangan. Lekin har bir odam o'zida aqldan tashqari yana qandaydir bir qudrat ham borligini biladi. Shuning uchun ba'zan odam aqliga ma'qul kelmasada, ko'ngliga o'tirishgan ishni qilgisi keladi. Ayni shu holat badiiy asarlarining qahramonlarida ham o'z aksini topishi kerak. Ya'ni adabiy qahramonlarning xatti-harakatlarigina emas, balki ko'ngil kechinmalari ham ularning tabiatlariga muvofiq bo'lishi kerak.

Qachondir qilingan ish, aytilgan fikr, so'zlangan so'z eskirishi mumkin, lekin inson ruhiyatining xususiyatlari hech qachon eskirmaydi. Shuning uchun ham badiiy ijodda odam ruhiyati tasviriga katta e'tibor qaratiladi. Siz badiiy asarlarda inson ruhiyatining tushuntirib berish qiyin bo'lgan jihatlari tasviriga ko'p marta duch kelgansiz. Chunonchi, raqibini yiqitilmagan Alpomishga qarata Oybarchin tomonidan aytilgan: "Qizlar sizni narmoda deb aytadi, Qizlarning aytgani menga botadi. Mardlar olishmaydi siltab otadi, Maydon bo'lsa, ish ko'rsatib ketadi" so'zlar yigit ruhiyatini ostin-ustun qilib yuborgani va shu vaqtgacha eplolmagan dushmanini ko'kka otgani bizga ma'lum. Yoki birovga qo'pol gapirishni bilmaydigan Otabekning uch yovuz dushmanga qarshi yolg'iz jangga kirishi ham uning ruhiyatida kechayotgan jarayonlarga mos.

"Ulug'bek xazinasini" romanidagi har bir personajning qilgan ishi, aytgan gapi uning ruhiy holatiga mos keladi. Qanchalar yovuz va shuhratparast bo'lmasin, otasiga tig' ko'tarish Abdullatif uchun ham oson kechmaydi. Asarda o'g'liga qarshi kurashishi lozim otaning ham, ota halokatiga sabab bo'lgan bolaning ham ruhiyati juda ta'sirli va ishonarli ko'rsatilgan. Yozuvchi o'tmishda nima bo'lganini aytibgina

qo'ymaydi, balki o'tmishdagi yovuzlikni sodir etganlar yoki undan jabr ko'rganlar qanday sezimlarni kechirganliklarini, qanday ruhiy holatga tushganliklarini ham ishonarli ko'rsatib beradi. Ayni shu holat bu romaning ta'sirchanligini ta'minlagan. Negaki, gap voqeada emas. Sababi, bo'lar ish bo'lgan, voqealar eskirgan, lekin qahramonlarning ruhiy holatlari hech qachon eskirmaydi. Ularning haqqoniy tasviri barcha davrlardagi kishilarga ta'sir qilaveradi.

Badiiy ijodda ruhiy tahlilning o'rni katta. U yoki bu badiiy asar insonning ruhiyatini qanchalik teran va ishonarli aks ettirishiga qarab baholanadi.

Adabiyot o'qituvchisi O. Yoqubov asarlaridagi aksar qahramonlarning g'oyat ta'sirchan, pokiza xulq kishilari ekaniga o'quvchilar e'tiborini tortishi va buning manbasi sifatida yozuvchi shaxsiyatini ko'rsatishi pedagogik maqsadga muvofiq bo'ladi. Uning asarlaridagi Ulug'bek, Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiy, Beruniy, Malikul sharob, Ibn Sino, Normurod domla, Suyun Burgut singari e'tiqodidan qaytmas timsollar adib shaxsiyatidan kelib chiqqandir. Unda niyat bilan amal o'rtasidagi nomuvofiqlikdan paydo bo'lgan ruhiy po'rtana jonli ko'rsatilgan.

Darslikda berilgan parcha to'rt qismga bo'lingan. O'qituvchi hech bo'lmasa a'lochi o'quvchilarning faqat darslikdagi parchani emas, balki butun romanni to'liq o'qib chiqishlariga erishsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki, olingan parcha asar haqida bir qadar tasavvur beradi, lekin uning badiiy tarovatini to'liq ifoda eta olmaydi.

XULOSA

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi “Odil Yoqubovning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni va adib asarlarini umumta’lim maktablarida o‘rgatish usullari” deb nomlandi. Biz mazkur kichik tadqiqotimizda yangi o‘zbek adabiyotining zabardast vakili Odil Yoqubov ijodiga diqqatimizni qaratdik. Tadqiqot obyekti bo‘lgan Odil Yoqubov ijodi shu bugunga qadar adabiy jamoatchilik tomonidan o‘z bahosini olib kelgan. Adibning hikoyalari qissalari, romanlari va dramalari kitobxonlar tomonidan iliq kutib olingan va shu bugunga qadar yozuvchining turli janrlarda bitilgan asarlari o‘z o‘quvchilarini topib kelmoqda. Bitiruv malakaviy ishimizda e’tiborni Odil Yoqubovning bir qancha hikoyalarga “Qaydasan, Mariko” qissasiga, “Diyonat”, “Oqqushlar, oppoq qushlar” romanlariga va “Bir koshona sirlari” dramasiga qaratdik. Odil Yoqubov ijodiga mansub asarlarni tahlil qilar ekanmiz, quyidagicha xulosaga keldik:

1. Odil Yoqubov adabiyot maydoniga kirib kelganiga yarim asrdan oshgan. Adibning asarlari zamonaviy o‘zbek nasrining badiiy tasvir imkoniyatini, salobatini ko‘rsatishi bilan xarakterlidir. Yozuvchi “Ulug‘bek xazinasi” romanida asar qahramonlari qismati misolida sirdan shafqatsiz va adolatsizday ko‘ringan hayotning, aslida, g‘oyat adolatli hamda mehribon ekanligini yaqqol ko‘rsatgan. Ulug‘bekning xazinasi faqat u yozgan va yiqqan ilmiy kitoblarigina emas, u, avvalo, odamlar orasidagi adolat, iymon, e’tiqod, olijanoblik, halollik singari qadriyatlardan iboratligi, odamlar ko‘nglidagi bu boylik hech qachon bitmas xazina ekanligi romada ishonarli aks ettiriladi.

2. Odil Yoqubovning olam hodisalari va odamning mohiyati haqidagi zalvorli o‘ylari, salmoqli mulohazalari “Ko‘hna dunyo” romanida o‘zgacha bir yo‘sinnda aks etgan. Muallif bu asarida inson, uning hayotidagi o‘rni, o‘z taqdirini belgilashdagi ishtiroki, adolat haqiqat va ularning tantanasi to‘g‘risidagi qarashlarini voqealar asnosida ifoda etadi. Odil Yoqubovning hokimiyat va shaxs munosabati, ulkan imkoniyatlarning odam fe’liga ta’siri aks ettirilgan “Diyonat” romanlari adib asarlari

orasida alohida o‘rin egallaydi. Yozuvchi “Oqqushlar, oppoq qushlar” romanida jamiyatdagi illatlarga qarshi boshlangan poklanish deb atalgan va hamma sohada adolatni barqarorlashtirish uchun bo‘lgan intilishlarni qalamga olgan. “Ulug‘bek xazinasini” romani O. Yoqubov ijodida ham, o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida ham muhim o‘rin tutgan asardir. Bu roman tasvirning shiddati, obrazlar ruhiyatidagi tug‘yonlarning qabariq tasvirlanganligi, timsollar tabiatining ishonarli ochilganligi bilan e‘tiborga loyiqdir.

3. Odil Yoqubov so‘nggi yillarda istiqlool ruhidan ilhomlanib, yurtimizda sodir bo‘layotgan tarixiy o‘zgarishlarni qalamga olishdan to‘xtamagan. Uning ayniqsa, bugungi zamondoshlarimiz-yurtimizning qahramonlari qiziqtdirdi. Bu jihatdan adibning “Qaydasan, Mariko” kitobiga kiritilgan asarlari e‘tiborga loyiqdir.

4. Umumta’lim maktablarida Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasini” romani matnini o‘rganish shunday tashkil etilishi kerakki, natijada o‘quvchilar badiiy asarda ruhiyat tahlili degan nazariy ma’lumotning asosiy qismini asar tahlili asnosida o‘zlashtirib olishlari mumkin bo‘lsin. Shunda nazariy tushuncha amaliy ko‘nikmalar yordamida hosil qilingan bo‘ladi va o‘quvchi xotirasiga mustahkam o‘rnashadi. Har qanday asar tahlili undagi qahramonlar timsolini o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Dars samaradorligini oshirish, DTSning bajarilishini ta’minlash maqsadida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

5. Zamonaviy innovatsion texnologiya, iloji boricha, o‘quvchilarning tafakkurini faollashtirishga yo‘naltirilgan. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga mavzu ustida bevosita o‘zlari mustaqil faoliyat ko‘rsatishlari, mantiqiy fikrlashlari va ma’lum xulosalar chiqarishi uchun imkoniyat yaratsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Umumta’lim maktablarida badiiy asar o‘rganilar ekan, uni ilmiy va didaktik tahlil etib, xulosalar chiqarishga uriniladi. Badiiy asar tahlilidan kerakli xulosalar chiqarish uchun ijodkorning tarjimai holi bilan tanish bo‘lish talab etiladi. Shundagina u yoki bu hayotiy hodisaga adib qanday munosabatda bo‘lganligidan xabardor bo‘lish mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga mavzu ustida bevosita o‘zlari mustaqil faoliyat ko‘rsatishlari, mantiqiy fikrlashlari va ma’lum xulosalar chiqarishi uchun imkoniyat yaratish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. –B.29.
2. Karimov I.A. Aqliy va ma'naviy salohiyat –yangi jamiyat poydevori. Ma'naviy yuksalish yo'lida. –T.: O'zbekiston. 1998. –B.49.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi. –T.: O'zbekiston. 1998. –B.122.
4. Ahmedov N. Tarixiy shaxs talqini. Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati. 1989. – B.13-28.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O'zbekiston, 2002.
6. Boltayev H. Nasr va uslub. –T.: Fan, 1992.
7. Doniyorov Sh. Tarixiy mavzu va adib mas'uliyati // O'zbek tili va adabiyoti. 2002. № 5 –B. 46-47.
8. Ergashev A.S. Rivoyat va uning badiiy asar syujet –kompozitsion tuzilishidagi o'rni. Filologiya fanlari nomzodi. Diss. Avtoref. –T.: 1993.
9. Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1983.
10. Isayeva Shoir. Adabiyot ko'zgusi. Sohibqiron siymosi. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1996. №3. –B.182.
11. Isayeva Shoir. Tarixiy haqiqatdan badiiy umumlashmaga. Nizomiy nomidagi TDPU Yangi tafakkur va adabiy jarayon ilmiy to'plam., –T.: 1997. –B.28-37.
12. Isayeva Shoir. "Ulug'bek xazinasi" romanida voqealar dramizmi va ruhiyat tasviri, O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2001. №3. –B. 65-67.
13. Isayeva Shoir. Go'zallik va fojeaviylik –ruhiy olam ko'zgusi. Nizomiy nomidagi TDPU, Pedagogik ta'lim ilmiy jurnal, 2001. №2. –B.51-53.
14. Isayeva Shoir. Tarixiy xarakterlar ruhiyati tasvirining badiiy shakllari haqida, Toshkent, Sharq yulduzi, jurnali, 2001. №3. –B.98-102.
15. Kattabekov A. Tarix saboqlari. –T.: 1986.
16. Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat. –T.: 1982.
17. Kattabekov A. Adabiyotning bosh mavzusi // Sharq yulduzi. 1987. № 11. –B 179

- 18.Mirvaliyev S. O‘zbek romani. –T.: Fan, 1969.
- 19.Mirzayev I. Davr ruhi va adabiy jarayon. Samarqand, 1997.
- 20.Mo‘minov G‘. Izlanishlarimdan qatralar. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. –T.: 2006. –B.230.
- 21.Normatov U.Yangi o‘zbek adabiyoti. –T.: 2007 va boshqalar.
- 22.Normatov U Bugungi nasrimiz tamoyillari // Jahon adabiyoti. 1997. 3-son.
- 23.Normatov U., Hamdamov U. Dunyoni yangicha ko‘rish ehtiyoji // Jahon adabiyoti, 2000, № 12.
- 24.Nosirov U. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. –T.: Fan, 1981. –B.198.
- 25.Normatov U.Yetuklik. –T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1982.
- 26.Normatov U.Umidbaxsh tamoyillar. –T.: Manaviyat 2000. –B.109.
- 27.Normatov U.Qalb koshonasi sirlari. O‘zAS. 2001, 2 mart.
- 28.Нравственное воспитание молодежи средствами художественной литературы. Республиканская научнотеоретическая конференция молодых ученых и специалистов. –T.: 1983. –С.97-100.
- 29.Qo‘shjonov M.Asar kompozitsiyasi. Adabiyot nazariyasi 2-tomlik, 1-tom. –T.: Fan, 1978.
- 30.Qo‘shjanov M. Qalb pokligi. Saylanma 1 jild. T.: 1982.
- 31.Qurbanov T.J. O.Yoqubovning partret yaratish mahorati: Filol. Fanlari nomzodi diss. avtoref. –T.: 1997.
- 32.Rahimov Z.A. O.Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romani poetikasi. Isayeva Sh. O‘zbek tarixiy romanlarida xarakter ruhiyatini tasviriy usullari.
- 33.Rasulov A. Tarix, falsafa, roman // Jahon adabiyoti, 2003, № 9, 154-165betlar.
- 34.Sarimsoqov B.Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: 2004.
35. Solijonov Y. Nutq va uslub. –T.: Cho‘lpon, 2002.
- 36.Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. –T.: 1981.
- 37.Umurov H.Badiiy ijod asoalari. –T.: 2001.
- 38.Xolmurodov A. Психологизм в романах Адыла Якубова. АКД.-T.: 1991.
- 39.Xudayberganov N.Parvoz davom etadi. -T.: 1980.

- 40.Yoqubov H. O‘zbek prozasida uslub rang-barangligi // O‘zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi. –T.: 1983.
- 41.Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Toshkent yangi asr avlodi, 2006.
- 42.Yoqubov O. Diyonat. –T.: Sharq, 1998.
- 43.Yoqubov O. Oqqushlar, oppoq qushlar. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.
- 44.Yo‘ldoshev Q. Tuyg‘ularning rangin jilosi // O‘zAS, 2004. 16 aprel.
- 45.Yoqubov O. Ulug‘bek xazinasi. –T.: Adab va san’at nashriyoti, 1994.
- 46.Yoqubov O. Qaydasan Mariko. –T.: Sharq , 2002.
- 47.Yoqubov O. Ko‘hna dunyo. –T.: Sharq, 2004.
- 48.Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. 1996, 127-bet.
- 49.Zayniddinov A. Tarixiy voqelikning badiiy talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. 2005. –B.90-1.
- 50.O‘zbek adabiy tanqidi. Antologiya. –T.: Turon-Iqbol 2011.
- 51.O‘zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi. –T.: “Fan”, 1983.
- 52.G‘afurov Y.Mangu latofat. –T.: 2009.
- 53.Sharafiddinov O.Ijodni anglash baxti. –T.: 2004.
- 54.Sharofiddinov O.Dovondagi o‘ylar. -T.:Ma’naviyat, 2004.
- 55.Sharofiddinov O. Ijodni anglash baxti. -T.: Sharq 2004.